O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan Davlat universiteti

Fizika-matematika fakulteti

Umumtexnika fanlari va kasb ta'limi kafedrasi

5140900 – Kasb ta'limi (5810300 - Servis) 406-guruh bakalavriat bosqichi bitiruvchisi

Nugmanova Mohira Damir qizining

**"Kasb-hunar kollejlarining tikuvchilik yo'nalishlaridagi maxsus rasm fanida "Odam qomati rasmini ishlash" mavzisini o'tish"**

mavzusidagi

# BITIRUV MALAKA ISHI

Ilmiy rahbar: fiz.-mat. f.n., dotsent Nugmanov D.L.

Taqrizchilar: ped. f.n., dotsent Turdaliyev A.

fiz.-mat. f.n., dotsent Xusanov A.J. (QDPI)



Namangan-2012

## ANNOTATSIYA

Prezidentimiz I.A.Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflagan: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir"

"3540612-Tikuv va tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnik texnologi" kichik mutaxassisligida o'qitiladigan fanlarning, jumladan, "Maxsus rasm" fanining o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda odam gavdasining kiyim bilan turli holatlardagi rasmini chizishga o'rgatish, ularning shu soha bo'yicha kichik mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktabida o'qitiladigan tasviriy san'at fanidan dars mashg'ulotlarida odam gavdasini chizishga ko'p vaqt ajratilmagani tufayli "Maxsus rasm" fanini o'qishga kirishayotgan o'quvchilarda hali odam qomati rasmini ishlash malakalari yetarli emas. Bu esa, ularning tanlagan sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida qiyinchilik tug'diradi.

Kelgusi pedagogik faoliyatga puxta tayyorgarlik ko'rish, kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan "Maxsus rasm" fanidan o'tiladigan dars mashg'ulotlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etish, ularni o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlashga imkon darajasida xissa qo'shish va shu asosda dars ishlanmasi, ko'rsatma-tarqatma materiallar tayyorlash bugungi kunda dolzarb hamda qo'limdan keladigan ish sifatida yondoshdim.

# MUNDARIJA


| § | Mavzular | Sahifa |
|---|---|---|
| | Reja ……………………………………………………… | 3 |
| **I.** | **Kirish** …………………………………………………… | 4 |
| 1.1. | Mamlakatimiz taraqqiyotining “O’zbek modeli” haqida. | 7 |
| 1.2. | Birituv malakaviy ish mavzusini asoslash……………………….. | 12 |
| 1.3. | Adabiyotlar tahlili ……………………………………………….. | 14 |
| **II.** | **Nazariy qism** ……………………………………………… | 18 |
| II.1. | Odam qomati rasmini ishlash tarixidan……………………… | 18 |
| II.2. | Oddiy geometrik jismlarning rasmlarini chizish………………… | 25 |
| II.3. | Odam qomati rasmini ishlash tartibi…………………………….. | 27 |
| II.4. | Umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida o’qitiladigan fanlarda odam qomatiga oid bilim, ko’nikma va malakalarning berilishi haqida……………………………………………… | 35 |
| II.5. | Ilg’or pedagogik texnologiyalar haqida…………………………. | 41 |
| **III.** | **Metodika qismi** ………………………………………….… | 48 |
| III.1. | Dars samaradorligini oshirish uchun tayyorlangan ko’rsatmali materiallar…………………………………………………... | 48 |
| III.1.1. | Tayyorlangan plakatlar…………...…………………………. | 48 |
| III.1.2. | Tayyorlangan tarqatma materiallar ……..…………………… | 56 |
| III.2. | Talim texnologiyalari. “Erkaklar kiyimi modellari rasmini chizish” mavzusini o’tish……………………………………… | 59 |
| III.2.1. | Dars mashg’ulotini o’tish texnologiyasi…………………………. | 59 |
| III.2.2. | Dars mashg’ulotining  texnologik xaritasi……………………….. | 60 |
| III.3. | Tajriba-sinov natijalari………………………………………… | 75 |
| **IV.** | **Xulosa** ……………………………………………………… | 80 |
| | **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati** …………………………… | 83 |
| | **Ilovalar.** INTERNET materiallari. ……………………………… | 86 |

## BITIRUV MALAKAVIY ISHI REJASI

**I. Kirish.**

I.1. Mamlakatimiz taraqqiyotining “O’zbek modeli” haqida.

I.2. Birituv malakaviy ish mavzusini asoslash.

I.3. Adabiyotlar tahlili.

**II. Nazariy qism**

II.1. Odam qomati rasmini ishlash tarixidan.

II.2. Oddiy geometrik jismlarning rasmlarini chizish.

II.3. Odam qomati rasmini ishlash tartibi.

II.4. Umumta’lim maktablari va kasb-hunar kollejlarida o’qitiladigan fanlarda odam qomatiga oid bilim, ko’nikma va malakalarning berilishi haqida.

II.5. Ilg’or pedagogik texnologiyalar haqida.

**III. Metodika qismi**

III.1. Dars samaradorligini oshirish uchun tayyorlangan ko’rsatmali materiallar.

III.2. Talim texnologiyalari. “Erkaklar kiyimi modellari rasmini chizish” mavzusini o’tish.

III.2.1 Dars mashg’ulotini o’tish texnologiyasi.

III.2.2. Dars mashg’ulotining texnologik xaritasi.

III.3. Tajriba-sinov natijalari.

**IV. Xulosa**

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

**Ilova**

INTERNET materiallari.

# I. KIRISH

Xalq manfaati, odamlarning oilasi va farzandlari, yurtning farovonligi va taraqqiyoti uchun amalga oshirilayotgan va kelajakda amalga oshirilishi nazarda tutilayotgan barcha islohotlar xalqimiz farovonligi va mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida muhim ahamiyatga egadir.

Yaqinda Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligini tantanali nishonladik. Bu davr mobaynida yurtimizda ulkan ishlar amalga oshirildi. Shaharu-qishloqlarimizda bunyod etilayotgan turar-joy binolari, ishlab chiqarish inshootlari, yo'llar, ko'priklarni ko'rib ko'z quvnaydi. Ayniqsa, mamlakatimiz ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Yoshlarning bilim olishlari uchun barcha qulayliklar yaratib berilmoqda. Yurtimizda yoshlarga ko'rsatilayotgan beqiyos e'tibor bugun o'zining yuksak samaralarini bermoqda. Bunday yutuq va muvaffaqiyatlar zamirida jamiyatimizda ta'lim tizimidagi islohotlar muhim rol o'ynamoqda.

Yoshlarning mustahkam bilim olishlari, har tomonlama yetuk va yuksak ma'naviyatli bo'lib voyaga yetishlari uchun yetarli shart-sharoitlar yaratilgan. 2012-yilda mamlakatimizda ijtimoiy sohani rivojlantirishga davlat byudjetining 60%i yo'naltirilishi rejalashtirilmoqda. Ta'lim tizimi rivojiga yalpi ichki mahsulotning katta qismi sarflanmoqda. Mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlarning iqtidorini yuzaga chiqarishda ko'plab ijtimoiy loyihalar amalga oshirilmoqda.

"… ongi, tafakkuri, e'tiqodi mustahkam bo'lgan, o'z mustaqil fikri bilan yashayotgan odamni chalg'itib ham, kimlardir xohlagan tomonga og'dirib ham bo'lmaydi. Bu haqiqatni barchamiz, avvalo, bugun hayotga kirib kelayotgan yoshlarimiz yaxshi anglab olganiga ishonaman. … ushbu yo'nalishda ma'rifat idoralari, maktablarimiz, mamlakatimizning barcha ta'lim muassasalari tarafidan ko'p ishlar qilinmoqda" [2].

O'zbekiston Respublikasi aholisi yaqin kelajakda 30 milliondan oshadi. Ularning katta qismini 18 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov Qashqadaryo viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so'zlagan nutqida shunday degan edi:

-Yoshlar-bizning kelajagimiz, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi, deb ko'p gapiramiz. Bugun kuch-quvvatga to'lib, hayotga katta orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimizni munosib ish o'rinlari bilan ta'minlash, ularning yo'lini ochib berish-ota-ona, ustoz va rahbar sifatida bizning nafaqat vazifamiz, balki asosiy burchimiz bo'lishi zarur [3].

Shu bilan bir qatorda hali bajariladigan ishlar yetarli. Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni xalq ho'jaligining turli sohalariga jalb etish mamlakatimiz taraqqiyoti va iqtisodiyoti va uning yetakchi taqmoqlarini tubdan modernizatsiya va diversifikatsiya qilishga qaratilgandir.

Xalq ho'jaligining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim masalalardan yana biri-bu yangi ish o'rinlari yaratish va aholini ish bilan ta'minlashdir. 2011-yilda yurtimizda qariyb 1 millionta ish o'rni yaratilgan bo'lib, ularning 68%dan ortig'i qishloq joylarda tashkil etildi.

Qishloq joylarda sanoatni rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish va servis sohasini takomillashtirish bo'yicha loyihalar hayotga keng tadbiq etilmoqda. Keyingi yillarda kasanachilikning mehnat bozoridagi ishtiroki ham tobora jonlanmoqda. Natijada aholining salmoqli qismi shunday mehnat turiga jalb etilayotir. Iqtisodiyotning yetakchi sohalari rivojlantirilayotgani, ko'plab yangi quvvatlarning ishga tushirilayotgani tufayli minglab ish o'rinlari tashkil etilib, aholining mehnatga layoqatli qismi, ayniqsa, yoshlarning bandligini ta'minlashga erishilmoqda.

Umumlashtirib aytadigan bo'lsak, 2012-yilda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi yurtimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning samaradorligini oshirish, aholi turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan "Sog'lom ona-sog'lom bola" dasturi bugungi kunga kelib umummilliy harakatga aylandi. 2011-yil 26-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan "O'zbekistonda ona va bola salomatligini muhofaza qilishning milliy modeli: "Sog'lom

ona-sog'lom bola" mavzusidagi xalqaro simpozium"da ham ushbu yutuqlarga keng to'htab o'tildi.

Prezidentimiz ushbu simpoziumdagi nutqida, jumladan shunday dedi: "Sizlarning atoqli xorijiy olimlar va tibbiyot olamining yuksak o'bro'-e'tiborga ega mutaxassislari ishtirokida O'zbekistonda aholi salomatligini himoya qilish, sog'lom va barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha amalga oshirilayotgan umummilliy dasturning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllangan onalik va bolalikni muhofaza qilish modelining muhokama etilishi biz uchun katta sharafdir" [4].

O'zbekiston joriy yilda "Bolalarni asraylik" xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan 161 mamlakatdan iborat jahon reytingida o'sib kelayotgan yosh avlod salomatligi haqida eng ko'p g'amxo'rlik ko'rsatilayotgan davlatlar orasida 9-o'rinni egalladi.

1991-yildan buyon o'tgan davrda yurtimizda odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, ayollarning umr ko'rishini esa 75 yoshga uzaytirishga erishdik.

Ushbu anjumanda so'zga chiqqan chet ellik mutaxassislarning fikrlariga e'tibor beraylik.

JSST bosh direktori Margaret Chen: "Osmirlar salomatligi masalasiga ham O'zbekistonda doimiy e'tibor qaratib kelimmoqda. Salomatlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadigan sportni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilayotgani ham taxsinga sazovordir. Onalar o'limining oldini olish samaradorligi, shuningdek, to'liq malakali shoshilinch akushetlik yordami va undan foydalanish imkoniyatlarining nechog'li kengligiga bog'liq. O'zbekiston bu borada o'z yutuqlari bilan faxrlansa arziydi".

Jorj Krol (AQSHning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi): "Kutubxonalar jamiyatda muhim ahamiyat kasb etadiki, ular ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida odamlarga o'z bilimlari darajasini oshirish, tevarak atrofda kechayotgan jarayonlarni yaxshiroq idrok etish, o'zlarini o'rab turgan barcha voqeliklarni teranroq bilishlariga ko'maklashadi. Ushbu mahobatli "Ma'rifat markazi" binosiga maftun bo'lganimni izhor etaman. Toshkent aholisi va O'zbekiston xalqi mazkur boy ma'lumotlar bazasiga ega bo'lganidan mamnunman. Bularning barchasi O'zbekistonda madaniyat, ilm-fan va ta'limni yanada rivojlntirish yo'lida amalga oshirilayotganiga sira shubha yo'q".

### I.1. Mamlakatimiz taraqqiyotining "O'zbek modeli" haqida

"Shuni unutmasligimiz lozimki, biz XXI asrda, intellektual qadriyatlar ustuvor bo'lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz" [5].

Ma'lumki, bir necha yildan beri jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etib kelmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada etkinlashtirish, ishlab chiqarishni takomillashtirish, xususiy tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va shu yo'l bilan yangi ish o'rinlarini ko'paytirishga katta e'tibor berilmoqda. Dunyoda davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida amalga oshirilayotgan bunday ishlar, ayniqsa, muhimdir. Dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan mamlakatimiz taraqqiyotining "O'zbek modeli" va shu asosda qabul qilingan "2009-2012-yillarga mo'ljallangan Inqirozga qarshi choralar dasturi"ning hayotga tadbiq etilishi asosida yurtimizda iqtisodiy o'sish sur'atlari saqlab turilibdi.

Xalqaro valyuta fondining xulosasiga ko'ra O'zbekistonda o'tgan 5 yilda yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning o'sishi o'rtacha 8,5% teng bo'lgan. Bu ko'rsatkich 2011-yilda 8,3%ga teng bo'lgan bo'lsa, 2012-yilda 8,6% bo'lishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda "O'zbek modeli" sifatida e'tirof etilgan rivojlanish modelini amalga oshirish samarasi o'laroq, davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qaramay, Respublikamizda iqtisodiy barqarorlik va o'sishning izchil yuqori sur'atlari saqlanib qolmoqda.

2011-2015-yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi Dasturga binoan investitsiya loyihalarining o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Prezident I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" [6] asarida avj olib borayotgan global moliyaviy inqiroz jahon moliya-bank tizimida jiddiy nuqsonlar mavjudligini, ushbu tizimni tubdan isloh qilish zarurligini ko'rsatganligi, ayni vaqtda bu inqiroz manfaatlarini ko'zlab ish yuritib kelgan, kredit va qimmatbaho qog'ozlar bozorida turli spekulyativ amaliyotlarga berilib ketgan banklar faoliyati ustidan yetarli darajada nazorat yo'qligini tasdiqlanganligiga alohida to'htalib o'tgan edi.

Osiyo taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi 43-yillik majlisining ochilish marosimida mamlakatimiz Prezidenti jahon inqirozining har bir mamlakatga qay darajada ta'sir ko'rsatgani, o'sha mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar modeliga, moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining naqadar barqaror hamda mustahkamligiga, ularda himoya mexanizmlarining nechog'li kuchli ekanligiga bog'liqligini ta'kidlab o'tgan edi.

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyotida global inqiroz tufayli yuzaga kelgan ishsizlik darajasi, tashqi qarzlar, byudjet va to'lov balansi taqchilligining o'sishi kabi jiddiy makroiqtisodiy muammolar o'z yechimini topmadi.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida dunyoda va mamlakatimizda ushbu inqirozning kelib chiqish sababi va oqibatlari, uning ta'sirini yumshatish hamda bartaraf etish masalalari bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirildi.

Global inqirozning kelib chiqishiga so'nggi o'n yillikda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotining globallashuvi, bank-moliya tizimida va xalqaro moliya bozorlarida moliyaviy nazoratning susayishi kabi o'zaro bog'liq bo'lgan bir qator makroiqtisodiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatdi. Natijada, muammolarning tobora chuqurlashuviga va global inqirozning yuzaga kelishiga zamin yaraldi.

Aholi bandligini ta'minlash mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xalq turmush darajasini yuksaltirish, jamiyatda sotsial barqarorlikka erishishning asosiy omillaridan hisoblanadi. Bu, ayniqsa, aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil etadigan O'zbekiston uchun nihoyatda muhimdir. Shu sababli Oliy Majlis Senatining yettinchi yalpi majlisida "2012-yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi" ko'rib chiqilib, ma'qullangan. Bandlik dasturi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, soliq va byudjet kontseptsiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor va eng muhim yo'nalishlarini e'tiborga olib ishlab chiqilgan. Mamlakatimizda global inqirozga qarshi samarali choralar ko'rilib, puxta moliyaviy-iqtisodiy va investitsiya siyosati olib borilayotgani natijasida yuqori iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari ta'minlanmoqda. Jumladan, yangi quvvatlar ishga tushirilib, qo'shimcha ish joylari ko'paymoqda. Ish o'rinlarining asosiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kasanachilikni rivojlantirish, yirik ishlab chiqarish quvvatlari faoliyatini yo'lga qo'yish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish hisobiga barpo etilmoqda.

2012-yilda 967,5 mingta ish o'rni yaratilishi mo'ljallanmoqda. Bunda yoshlar, ayollar hamda qishloq aholisini ish bilan ta'minlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu ma'noda, Bandlik dasturida bugun kuch-quvvatga to'lib, hayotga katta orzu-umidlar bilan kirib kelayotgan o'g'il-qizlar uchun munosib ish joylari tashkil etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

2012-yilda uy mehnati va kasanachilikni rivojlantirish orqali 217,2 mingta ish o'rni tashkil etilishi rejalashtirilgan. To'qimachilik, tikuvchilik, charm-poyafzal, mebel, oziq-ovqat, kimyo, mashinasozlik, elektrotexnika, aloqa, xizmatlar va servis sohalaridagi korxonalarda kooperatsiya asosida kasanachilik ish o'rinlari ochiladi. Oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va pudrat asosidagi uy mehnatini rivojlantirish orqali 165 ming kishining bandligini ta'minlash ko'zda tutilgan.

"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi tadbirkorlik va bandlikning huquqiy asoslari yanada mustahkamlanishiga, yangi ish o'rinlari ochilishiga zamin yaratmoqda.

Qishloq ho'jaligi sohasi aholi bandligini ta'minlashning asosiy omillaridan biridir. Dasturda chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, bog'dorchilik, sabzavot mahsulotlarini yetishtirishda fermer, dehqon, va aholi tomorqa ho'jaliklari salohiyatidan unumli foydalanish

orqali yangi ish o'rinlarini tashkil etish ko'zda tutilgan. Ayni chog'da qishloq ho'jaligi samaradorligini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar aholi bandligi va daromadlarini oshirish bilan bir qatorda, meva-sabzavot, kartoshka, uzum va poliz mahsulotlari, tuxum, sut hamda go'sht mahsulotlarini ko'paytirishga olib keladi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" [8] gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" [9] asosida mamlakatimiz ta'lim tizimida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Buning eng muhim jihati shundaki, ta'limga oid qabul qilingan Qonun va milliy dasturning ijrosi O'zbekiston rahbariyati va hukumatining ustuvor yo'nalishi ekanligidadir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va boshqa davlat dasturlari asosida mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalariga mos ravishda ta'lim tizimini eng ilg'or xalqaro standartlar asosida tubdan isloh qilish ko'zda tutilgan. Kasb-hunar kollejlari bugungi kunda bu borada belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirmoqda, ularning eng yaxshi an'analari ilg'or xalqaro tajribalar bilan uyg'un holda boyitilmoqda. O'quv jarayonini yanada takolimllashtirish maqsadida Kasb-hunar kollejlarida kompyuter va multimedia sinflari jihozlanib ulardan o'quv jarayonida keng hamda samarali foydalanilmoqda.

Odamlarga xizmat ko'rsatish sifati va saviyasini yuksaltirish borasidagi sa'y-harakatlar aholi turmush farovonligini oshirish yo'lidagi ezgu ishlarga munosib xissa bo'lib qo'shilaveradi.

Yoshlarimiz zamonaviy bilimlarni puxta o'zlashtirish, yetuk intellektual salohiyat va iste'dod sohibi bo'lib kamolga yetish maqsadida astoydil o'qib izlanmoqdalar. Kasb-hunar o'rganish, ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish, ilm-fan, san'at va sport kabi yo'nalishlarda yutuqlarni qo'lga kiritish shijoatli yigit-qizlar dilidagi ezgu muddaolardandir. Kelajak sari intilayotgan navqiron avlod vakillariga yuksak g'amxo'rlik ko'rsatish esa yurtimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Buning tasdig'i sifatida ta'lim tizimi rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlar, joylarda bunyod etilgan jahon andozalariga mos muhtasham o'quv maskanlari, iqtidor va qobiliyatini keng miqyosda namoyon etishi uchun yosh avlodga yaratib berilayotgan beqiyos imkoniyatlarni sanab o'tishimiz mumkin.

Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan yigirma yili davomida mamlakatimizda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining salmog'i katta. O'tgan davr mobaynida yurtimizda asrlarga tatigulik ishlar bajarildi. Shahar-qishloqlarning qiyofasini, odamlarning yashash sharoitini bundan yigirma yil oldingi holat bilan taqqoslaganda bu yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Milliy me'morchilik va zamonaviy arxitektura an'analarini o'zida mujassam etgan bino va inshootlar, koshonalar, saroylar, maydonlar, yo'llar, ko'priklar, uy-joylar, ijtimoiy obyektlar yurtimiz qiyofasini o'zgartirib yubordi.

Bularning barchasi ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdek ulug'vor maqsadlar izchillik bilan amalga oshirilayotganini ko'rsatib turibdi. Toshkent shahrida 2011-yilning 16-noyabr kuni "Ma'rifat markazi" binosining ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning tashabbusi va g'oyasi asosida poytaxtimiz markazida bunyod etilgan "Ma'rifat markazi" xalqimiz uchun munosib tuhfa bo'ldi. Ushbu zamonaviy muhtashan binodan Simpoziumlar satoyi va Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi joy olgan.

Yoshlarni buyuk ajdodlarimizga munosib vorislar qilib tarbiyalash, ularning qalbi va ongini begona g'oyalar, "ommaviy madaniyat"ning zararli ta'siridan himoyalashda, yoshlarning ma'naviy barkamol bo'lib voyaga yetishlarida ustoz va murabbiylarning xizmatlari kattadir.

O'tmish ajdodlarimiz jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta xissa qo'shishgan bo'lib, dunyo ilmiy jamoatchiligining diqqat-markazida bo'lgan. Yurtimizda ma'naviyat va ma'rifat, ilm-fan va madaniyat qadrlangan. Mustaqillik yillarida xalqimiz, xususan, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan ko'plab ma'rifat maskanlari barpo etilmoqda. Mamlakatimiz rahbari har qaysi davlat, har qaysi millat, avvalo, yuksak madaniyati, ma'rifat va ma'naviyati, barkamol yoshlari bilan kuchli ekanligini ta'kidladi [10].

Xalq ho'jaligining barcha tarmoqlaridagi kabi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalik tufayli yuzaga chiqmoqda.

Yaqinda yurtimizda 9-may-"Xotira va qadrlash kuni" keng nishonlandi. Poytaxtimizning Xotira maydonida o'tkazilgan tadbirda yurtimizda amalga oshirilayotgan yaratuvchilik ishlari haqida fikr yuritar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov shunday dedi: "Bugungi kunda O'zbekistonimiz erishayotgan, dunyo tan olayotgan marralar haqida so'z yuritganda, ularga zamin bo'lgan ko'pgina sabablarni keltirish mumkin. Lekin xalqimiz qo'lga kiritgan bu natijalarning negizida turgan asosiy omil-buni bugun hech kimga tushuntirib berishning hojati yo'q, deb o'ylayman-mustaqillik davrida odamlarimizning dunyoqarashi, hayotga, mehnatga, o'z kasbiga bo'lgan munosabati keskin o'zgarib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda" [7].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng xalq ho'jaliginining barcha tarmoqlari qatori ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilina boshladi. Uzluksiz ta'lim tizimining yangi – "O'zbek modeli" asosida umumiy ta'limning maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, uch yillik o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tuzilmalari tashkil etildi. Yoshlar kasb-hunar kollejlarida tanlab olingan kasn-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallashlari nazarda tutilgan.

So'nggi yillarda prinsipial yangi tipdagi o'rta maxsus o'quv muassasalari tarmog'i shakllandi. Viloyatimizda bugungi kunda 10 ta akademik litsey, 108 ta kasb-hunar kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bularning ichida aholiga servis xizmati, xususan, tikuvchilik xizmati ko'rsatishga yo'naltirilgan kasb-hunar kollejlari har bir tumanda mavjud.

## I.2. Birituv malakaviy ish mavzusini asoslash

Prezidentimiz I.A.Karimov milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasining maqsadi haqida fikr yuritib, uni shunday ta'riflagan: "Xalqni buyuk kelajak va ulug'vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo mas'uliyat sezib yashashga chorlash, ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchilik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir" [11].

Bugungi kunda yoshlar qalbida ona-Vatanimizga, boy tariximizga, milliy qadriyatlarimizga, ona tilimizga, islom diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish, o'z yurti, Vatani va xalqi uchun fidoyi insonlarni tarbiyalash asosiy maqsadimizdir. O'zbekistonning o'ziga xos taraqqiyot yo'lining asosiy maqsad va vazifalarini amalga oshirishning ijtimoiy soha vazifalarida komil insonni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Vatanga, ona zaminga sadoqatli, chuqur bilimli va yuksak malakali kadrlarni tarbiyalash jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonini yanada chuqurlashtiradi. O'zbekistonda yangi jamiyatni barpo etish jarayoni Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Vatanimiz ravnaqini ro'yobga chiqarishning ijtimoiy-siyosiy asoslarida Vatan tuyg'usi va milliy g'urur hissini chuqurlashtirish, o'zlikni anglash va erkin shaxsni shakllantirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish, ijtimoiy kafolat mexanizmini takomillashtirish kabi omillar bilan bir qatorda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashga alohida urg'u berilgan.

Malakali kadrlar tayyorlash haqida Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov shunday degan edi: "… Bizga kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kerak. Bu dastur: …, hunar-texnika bilim yurtlarida xo'jalik hisobini joriy etishni va shu asosda ommaviy kasb kadrlarini tayyorlash sifatini keskin oshirishni, … o'z ichiga olishi kerak" [1].

"3540612-Tikuv va tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnik texnologi" kichik mutaxassisligida o'qitiladigan fanlarning, jumladan, "Maxsus rasm" fanining o'quv dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda odam gavdasining kiyim bilan turli holatlardagi rasmini chizishga o'rgatish, ularning shu soha bo'yicha kichik mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktabida o'qitiladigan tasviriy san'at fanidan dars mashg'ulotlarida odam gavdasini chizishga ko'p vaqt ajratilmagani tufayli "Maxsus rasm" fanini o'qishga kirishayotgan o'quvchilarda hali odam qomati rasmini ishlash malakalari yetarli emas. Bu esa, ularning tanlagan sohalari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlarida qiyinchilik tug'diradi.

Kelgusi pedagogik faoliyatga puxta tayyorgarlik ko'rish, kasb-hunar kollejlarida o'qitiladigan "Maxsus rasm" fanidan o'tiladigan dars mashg'ulotlariga ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini keng tadbiq etish, ularni o'quv-uslubiy materiallar bilan ta'minlashga imkon darajasida xissa qo'shish va shu asosda dars ishlanmasi, ko'rsatma-tarqatma materiallar tayyorlash bugungi kunda dolzarb hamda qo'limdan keladigan ish sifatida yondoshdim. Shu mulohazalardan kelib chiqib men bitiruv malakaviy ishni bajarishda **"Kasb-hunar kollejlarining tikuvchilik yo'nalishlaridagi maxsus rasm fanida "Odam qomati rasmini ishlash" mavzisini o'tish"** mavzusini tanlab oldim.

### I.3. Adabiyotlar tahlili

Rahim Xasanov. Tasviriy san'atni o'qitish metodikasidan amaliy mashg'ulotlar. Toshkent. ToshDPU rotaprinti. 2006 [12]:

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan tasviriy san'at fanida o'quvchilar naturaga qarab rasm ishlash, kompozitsiya, san'atshunoslik asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar. O'quvchilarda turli xil buyumlarning hajmi va joylashuvi, ularning o'ziga xos belgilari, haqida tasavvurga ega bo'lishlarida naturaga qarab rasm ishlash asosiy o'rinni egallaydi. O'quvchilar turli xil buyumlar qatori haykalchalarning ham rasmlarini chizadilar. Bunda ular chizayotgan rasmda narsa va haykalning asliga mos kelishi, narsalarning o'lchov nisbatlari, tuzilishi, shakli, rangi kabilarga alohida e'tibor bilan qarashlari kerak.

Mazkur kitob 6-sinfda tasviriy san'atdan amaliy mashg'ulotlarga bag'ishlangan bo'lib, unda naturaga qarab rasm ishlashda oddiy shakldagi buyumlar, qush, hayvon va keyinchalik odamni asliga qarab yoki tasavvur asosida, adabiy asarlarga illyustratsiyalar ishlash mashg'ulotlarida ertak, hikoya, doston qahramonlarining obrazlari asosida rasm va miniatyuralarni, loy va plastilindan haykallarni qanday qilib yaratish mumkinligini amaliy mashg'ulotlar misolida tushuntirib berilgan.

O'quvchilar dars mashg'ulotlarida chet el xalqlari odamlari (yosh va qarilar, erkaklar va ayollar)ning milliy kiyimlari, turli fasllarda kiyiladigan kiyimlar, mamlakatlar iqlimidagi farqlarga e'tibor beradilar va kiyimlar eskizini ishlash jarayonida ularning o'zbek kiyimlari bilan umumiyligi va farqini tahlil etadilar. Muallif kiyim eskizini chizish tartibini quyidagicha taklif etadi:

1. Rasm komponovkasini hal etish (rasmni tik holatdagi daftar varag'iga joylashtirishni rejalash).
2. Odam qomati rasmini ishlash.
3. Odam qomati rasmi ustiga kiyim rasmini chizish.
4. Rasmni tez-tez solishtirib turish.
5. Kiyimning o'lchovi, bezagi, rangi, materiali va tuzilishiga alohida e'tibor berib chizish.

O'quv qo'llanma 6-sinf tasviriy san'ati fanining amaliy mashg'ulotlariga mo'ljallanganligi tufayli odam qomatini chizish tartibi, xususan, tana elementlarining nisbiy o'lchamlari haqida ma'lumotlar berilmagan.

Z.Egamberdiyev va boshqalar. Rasm chizish va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. "O'qituvchi". 1977 [13].

Mazkur qo'llanmada boshlang'ich sinflarda tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga taalluqli materiallar bayon etilgan. Q'ollanmada bir necha seansli rasmlar chizish ketma-ketligi, sinfda turli xil rasmlarni chizish, mustaqil ravishda mavzu asosida kompozitsiyalar ishlash haqida tavsiyalar berilgan.

Qo'llanmada skelet va uning tarkibiy qismlari haqida umumiy ma'lumotlar berilgan va skelet hamda bosh suyagining rasmi berilgan. Odamning yoshiga ko'ra kallaning bo'yga

nisbatan o'lchamlari haqida ham raqamlar keltirilgan. Odamning o'ziga qarab rasmini chizish tartibi rasmlar yordamida bayon etilgan.

A.Sulaymonov va N.Abdullayev. Tasviriy san'at. 7-sinf uchun darslik. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007 [14].

Ushbu darslikda san'atda oqim va yo'nalishlar, amaliy bezak va dizayn san'ati, me'morlik san'ati, kitob grafikasi kabi mavzularni qamrab olgan bo'lib, unda odam rasmini qanday chizish haqida ma'lumotlar berilmagan.

M.Shahodatov. Haykaltaroshlik va plastik anatomiya. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Fan va texnologiya". 2004 [15].

Qo'llanmada haykaltaroshlik san'atining rivojlanish bosqichlari, haykaltaroshlik tarixi, haykallarni tayyorlash ijodiy jarayoni, haykaltaroshlikka oid iboralarning izohlari bayon etilgan. Qo'llanmada odam tanasining qismlari, xususan, odam yuz bo'laklarini gips modeliga qarab ishlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar keng sharhlab berilgan.

O.Qozoqov. Tasviriy san'at oqimlari. Toshkent. "Sharq". 2008 [16].

Tasviriy san'at oqimlari, ularning mohiyati, o'ziga xosligi va oqimning eng ko'zga ko'ringan asoschilari hamda ular asarlarining talqini kitobning mavzusi hisoblanadi. Kitob keng ommaga mo'ljallangan.

R.Xudayberganov. Rangshunoslik asoslari. Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2008 [17].

O'quv qo'llanma badiiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, tabiatdagi ranglarning hosil bo'lishi va tarqalishi, bo'yoqlarni aralashtirib tayyorlash va ulardan foydalanish yo'llari bayon etilgan.

R.Hasanov. Tasviriy san'at asoslari. Qo'llanma. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009 [18].

Mazkur qo'llanmada tasviriy san'at taraqqiyoti, tasviriy san'atning nazariy asoslari, uning taraqqiyoy bosqichlari, jahonga mashhur rassomlar va haykaltaroshlarning hayoti va ijodiga oid ma'lumotlar berilgan. Unda atamalarning izohli lug'ati ham berilgan.

Bulardan tashqari quyidagi ro'yxatda keltirilgan tasviriy san'atga oid adabiyotlar bilan ham tanishib chiqildi:

-Boburnoma. Miniatyuralar. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. "O'qituvchi". Toshkent. 2008 [19];

-O'zbek milliy kiyimlari. XIX-XX asrlar. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2006 [20];

-Usto Mo'min (A.Nikolayev). Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1982 [21];

-Ch.Axmarov. Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1979 [22];

-A.M.Серов. Рисунок. Учебное пособие. Москва. «Просвещенеие». 1975 [23];

-A.Turdaliyev. Kompozitsiya. Testlar. Uslubiy qo'llanma. Namangan. NamDU. 2007 [24].

**Bob bo'yicha xulosalar:**

-mamlakatimiz taraqqiyotining dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan "O'zbek modeli" asosida halq ho'jaligining barcha tarmoqlarida tub islohotlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirib kelinmoqda;

-"3540612-Tikuv va tikuv trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnik texnologi" kichik mutaxassisligida o'qitiladigan "Maxsus rasm" fanida o'quvchilarga odam gavdasining kiyim bilan turli holatlardagi rasmini chizishga o'rgatish, ularning shu soha bo'yicha kichik mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim ahamiyatga ega;

-"Maxsus rasm" o'quv fanidan o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda odam gavdasi rasmini ishlash bo'yicha adabiyotlar, xususan, uslubiy ishlanmalar kam.

## II. Nazariy qism

### II.1. Odam qomati rasmini ishlash tarixidan

Vatanimiz zaminida qadim zamonda yashagan odamlardan bizgacha yetib kelgan turli xil osori-atiqalar, qimmarbaho buyumlar ichiga odam gavdasi ifodalalangan tasvirlar ham ko'p uchraydi. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O`rta Osiyodagi badiiy hayot va madaniyatni tushunishda Amudaryoning yuqori oqimi tomonidan topilgan "Amudaryo boyligi" (Oks boyligi) muhim o`rinni egallaydi. Xozirgi kunda Londondagi Britaniya muzeyida saqlanayotgan bu yodgorliklar ichida turli ko`za, bilakuzuk, muhr, tanganlar, oltindan yasalgan aravacha va qurollar bilan birga odam haykallari diqqatga sazovordir. Bu buyumlarda uchraydigan tasvirlar birmuncha shartli bo`lsa ham, lekin nihoyatda ifodali ishlanganligi bilan ajralib turadi, detallari ochiq va tugal ishlanishi bilan xarakterlanadi. "Jangchi - sak" bo`rtma tasvirida shu fazilatlar mujassamlangan.

Qoyalar va g'orlar, arxeologik qazishmalar va qadimgi binolarda hayvonlar, ov manzaralari bilan bir qatorda odam qomati rasmi tasvirlangan suratlar uchraydi. Qoyalar va g'orlardagi rasmlarda odam qomatining umumiy shakli tasvirlangan bo'lsa, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlaridagi binolar devorlariga ishlangan rasmlar yurtimizda tasviriy san'at juda qadimdan rivojlanganligidan dalolat beradi (1-rasm).


a


b


v

1-rasm. Odam tasviri tushirilgan qadimgi rasmlardan namunalar:
a- Nurota tog'lari Qoratov tog' tizmasining janubiy yon bag'ridagi Qoracharvoq qoyatoshlariga ishlangan tasvirlar;
b- Bolaliktepa devoriy rasmidan parcha. Surxondaryo. V-VI asrlar;
v- Afrosiyob devoriy rasmidan parcha. Samarqand. V-VII asrlar.

Amir Temur va Temuriylar davrida keng miqyosda yaratuvchilik ishlari bilan bir qatorda tasviriy san'atning mo'jaz san'at turi - miniatyura san'atida ham sezilarli darajada jonlanish yuz berdi. Shu davrda yashab ijod etgan Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib, Muhammad Murod Samarqandiy va boshqa musavvirlar miniatyura san'atining nodir namunalarini yaratib qoldirdilar. Bular orasida, ayniqsa, Kamoliddin Behzodning faoliyati (1466-1535) diqqatga sazovordir. U Xirotda tug`ilib, keyinchalik Xusayn Boyqaro kutubxonasida ishlagan. 1507-yil Xuroson Shayboniyxon qo`liga o'tgach, 1522 yilda Buxoroga ko`chib kelgan va shu yerda yashab ijod qilgan hamda o`zining mashhur "Shayboniyxon portreti"ni yaratgan. Bundan tashqari u bir nechta mashhur insonlarning portretlarini ishlaydi, shoirlar asarlariga illyustratsiyalar yaratadi. Buyuk A.Navoiyning g`amho'rligida kamol topgan Behzod Sa'diyning "Buston"', "Guliston", Nizomiyning "Hamsa", Xisrav Dehlaviyning "Hamsa", Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlariga ko`plab suratlar chizgan. U Markaziy Osiyo miniatyura maktabining rivojiga katta ta'sir ko`rsatdi, Uning ijodiy rejalarini keyinchalik uning shogirdlari davom ettirdilar. Bular Mulla Yusuf, Qosim Ali va boshqalardir.

Qadimgi Movarounnahr va Xurosonda odam rasmini tasvirlashga oid miniatyura asarlaridan tashqari tarixiy asarlarning deyarli mavjud emasligiga sabab islom dini tomonidan

tirik jonzodlar rasmini chizishning man etilganlidir. Shu tufayli Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mahmud Muzahhib kabi o'z davrining mashhur rassomlari odam rasmini kichik o'lchamlarda mo'jaz san'at asarlari-miniatyura janrida tasvirlash bilan cheklanganlar.

Masalan, atoqli miniatyurachi musavvir Mahmud Muzahhib mo'yqalamiga mansub bo'lgan Alisher Navoiyning hozirgacha eng mashhur portreti 7X16 sm o'lchamda bo'lib, u E'ronning Mashhad shahridagi Ostoni Quds kutubxonasida saqlanadi. Ushbu asarda Alisher Navoiy obrazi juda jonli, hayotiy va to'laqonli chgiqqanini mutaxassislar ta'kidlab o'tishgan. Sermashaqqat ijod qaddini biroz bukkan, lekin hali ham tetik, mag'rur shoir yengi uzun jomada, boshida oq salla, oppoq soqoli o'rtacha uzunlikda. Shoirning chehrasi, ayniqsa, biroz chimirilgan qoshlari juda jonli ifodalangan, hiyol istehzoli ko'zlari, nozik mijozidan dalolat beruvchi qimtingan lablari, hammasi Alisher Navoiyning o'ziga xos qiyofasi, kiyimi va turish holatidan guvohlik beradi [25]. Quyidagi rasmda tasvirlangan Qosim Ali mo'yqalamiga mansub "Alisher Navoiy va Sulton Muhammad Mirzo miniatyurasi" (2-a rasm) bugungi kunda Turkiyaning Istambul shahridagi To'pqopu muzeyida saqlanmoqda [26].



a



b

2-rasm. a-Qosim Ali rasmi. Alisher Navoiy va Sulton Muhammad Mirzo surati. Hirot. XV asrning 80-yillari;
b-"Farhod Shirinni oti bilan birga dast ko'tarib qasrga eltmoqda". Buxoro. 1648-yil.

Quyidagi rasm Buxoro shahrida 1648-yilda yaratilgan miniatyura bo'lib, u "Farhod Shirinni oti bilan birga dast ko'tarib qasrga eltmoqda" deb nomlanadi (2-b rasm).

XX asr boshlarida O`rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi tasviriy san'atga ham o`z ta'sirini o'tkazdi. Buni rassomlarning asarlarida o'sha davr real hayotini qanday tasvirlaganliklarida ko'rish mumkin. O`zbek tasviriy san'atida yangi uslublar namoyon bo`la boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyoga kela boshlagan rus rassomlari A.Karamzin, I.Kazakov, S.P.Yudin, R.Zommerlar ishlagan grafik illyustratsiyalarida ko'rish mumkin. 1918-20 yillarda Toshkent, Samaqand shaharlarida badiiy maktablar ochildi. Ularga ko'plab mahalliy yoshlar jalb etildi. O'zbekistonda yashab ijod qilgan rassomlardan O.Tatevosyan, A.Volkov, Usto Mumin (Nikolaev), P.Benkovlar bir qator ajoyib asarlar yaratganlar.

Mashhur rassomlardan P.Benkov O'zbekistonda tasviriy san'atning milliy kadrlarini tayyorlashga katta hissa qo`shgan. Uning Buxoro, Xiva, Samaqand haqidagi polotnolari, asosan, yarim manzara va yarim maishiy janrda bo`lib, ularda rassom mahalliy xalqlar turmushini ustalik bilan tasvirlaydi, ayollar obrazlarini yaratadi. "Dugonalar", "Dutorchi qiz" nomli asarlari rassom odam tasvirini juda jonli ifodalagan.

O'tgan asrning 20-30-yillardan boshlab tasviriy san'at sohasiga milliy rassomlar kirib kela boshladilar. Ularning ijodlarida do'stlik, tinchlik, mehnat mavzusidagi asarlar asosiy o'rinni egallagan. Bular jumlasiga Baxrom Hamdamiyning "Ish tugadi", Lutfulla Abdullayevning "Yosh shoir uyidagi uchrashuv" kabi asarlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda o`zbek tasviriy san'ati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga ko'tarildi. Bu davrda A.Abdullayevning "A.Xidoyatov portreti", "T.Oybek portreti", L.Abdullayevning "Qaxramonni kutib olish", R.Axmedovning "Onalik o`ylari', Yu.Elizarovning "O`zbekiston san'atkorlar guruxi portreti", V.Fadeevning "Soqchi ayol", M.Saidovning "Xirmonda", Ch.Ahmarovning devoriy rasmlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinlidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, o`zbek tasviriy san'atiga rassomlarning yangi avlodi kirib keldi. Bu davrda yaratilgan mashhur asarlar jumlasiga H.Boboev va

R.Chorievlarning rangtasvir asarlari, T.Muhammedovning karikaturalari, F.Grishchenkov va H.Xusniddinxo'jaevlarning haykallarini kiritish mumkin.



3-rasm. a-Chingiz Axmarov. "Ustoz va shogirdlar". Devoriy rasm parchasi. 1968-yil; b-G'ayrat Kamolov. "Layli va Majnun". 1985-yil; v-Xurshid Nazirov. Hofiz Xorazmiy g'azaliga ishlangan rasm. 1985-yil.

a b v

Odam qomati rasmini o'z asarlarida yaratgan xalq rassomlaridan Chingiz Axmarov, Abdulhaq Abdullayev, Rahim Axmedov, G'ayrat Kamolov, Xurshid Nazirov kabi ko'plab rassomlarning ijodlaridan quyidagi rasmlarda namunalar keltirilgan (3-rasm).

O`zbekiston tasviriy san'ati mustaqillikning 20 yili ichida zafarli yo`lni bosib o`tdi. Rassomlarimiz ko'pgina ko`rgazmalarda faol ishtirok etib, tasviriy san'atimizni dunyo hamjamiyati oldida manzara, natyurmort, portret va boshqa janrlardagi asarlarini namoyish etib kelmoqdalar.

O`zbekiston tasviriy san'atiga so'nggi yillarda ko'plab iste'dodli rassom va haykaltaroshlar kirib keldilar. Bular ichida Iskandar Ikromov, Malik Nabiev, Mannoy Saidov, Damir Ro`ziboev, Ilxom Jabborov, Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Alisher Mirzaev, Akmal Ikromjonov, Ne'mat Xakimov, Osimxon Vosixonov, Temur Sa'dullaev, G'ofur Abduraxmonovlar alohida mavqega ega. So'nggi yillarda yurtimizda yaratilgan mashhur asarlariga O`zbekiston xalq rassomlari Alishyer Mirzaevning bolalar, qizlar, onalar obrazlarini aks ettirgan "Toshkent-tinchlik va do`stlik shahri" triptixi, "Bola xonada", "Intizorlik", "Yosh oila haqida qo`shiq", Bahodir Jalolovning "Gul va Rayhon afsonasi", "Nido", "Baxt qushi", "Abadiy va navqiron Hindiston", "XXI asr Madonnasi" kabilarni misol qilib keltirish mumkin.

Haykaltarosh Damir Ro`ziboev o'z haykallarida xalqimizning madaniy hayoti va ziyolilar qiyofasini, "Rassom V.Savitskiy" va "Saida portreti"da zamondoshlarimiz obrazlari to'laqonli o`z ifodasini topgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida g'orlarda yashagan odan avlodlari qoyalar va g'orlarning devorlarida turli xil tasvirlarni chizib qoldirganlar (7-rasm).



4-rasm. Qoya va g'orlarning devorlaridagi rasmlardan namunalar: a-Ov manzarasi (Afrika); b-Jangchilar (Ispaniya); v-Yovvoyi asal yig'ayotgan ayol (Sharqiy Ispaniya).

a b v

Insoniyat taraqqiyotining keyingi davrlarida tasviriy san'at taraqqiy etib unda odam gavdasi rasmini ishlash ancha takomillashdi va real xususiyat kasb eta boshladi. Odam kallasining shakli turli usullar bilan oson chizish yo'llari kashf etildi. Mashhur rassom A.Dyurer odam kallasini chizishda o'zi ishlab chiqqan odam kallasi shaklini chizishning konstruktiv sxemasidan foydalangan [23];

. Umuman olganda odam kallasi shaklini chizishda quyidagi konstruktiv sxemadan foydalaniladi (5-rasm).



5-rasm. Odam kallasi rasmi: a-Villari. Odam kallasi rasmi. b-Dyurer. Odam kallasi konstruktsiyasi; v-G.Golbeyn. Odam kallasi rasmi.

a b v

Tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiyasida asaosan odam gavdasini chizish bilan cheklaniladi. Odam gavdasining detallari, xususan, kallani barcha mayda detallari bilan

chizishga katta e’tibor berilmaydi. Shunday bo’lishiga qaramasdan turli xil kiyimlarni loyihalashda ularni ogam gavdasiga kiydirgan holda tasvirlash uning ko’rgazmaliligini kuchaytiradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda odam kallasi detallarining nisbiy o’lchamlari, turli xil vaziyatlardagi ko’rinishini chizish mashqlarini bajarish foydadan holi emas. Odam kallasi rasmini chizishni o’rganishda quyidagi mashqlarni bajarib ko’rish mumkin (6-rasm).



6-rasm. Odam kallasini turli vaziyatlarda chizish

a b v g

Qadimgi rassomlik akademiyalarida shakl tuzilishining konsturuktiv sxemasiga katta ahamiyat berilgan.

Tajribalardan shu narsa ma’lumki, odam qomati shaklining konsturuktiv tuzilishini o’quvchilar tomonidan mukammal o’zlashtirilishi keyinchalik turli xil yosh va jinsdagi odam qomatini turli xolatlarda va har xil kiyimlarda chizishni osonlashtiradi.

XIX asr boshlarida A.R.Sapojnikov odam kallasi shaklining konsturuktiv tuzilishini ko’rgazmali tasvirlash uchun simdan maxsus model yaratadi (7-rasm).



7-rasm. A.R.Sapojnikov. Odam kallasining simli modeli.

Odam qomati shaklining tuzilish qonuniyatlarini sxematik tarzda bo’lsa ham bilish o’quvchida tabiatdagi buyumlarni kozatish, chizilayotgan rasmni sifatli bajarish imkonini beradi. O’quvchi naturani ko’zdan kechirar ekan, odam tana a’zolarining nisbatlarini bilib so’ngra rasmni chiza boshlaydi. Bunda unga minglab yillardan beri rassomlar foydalanib kelgan ishni yengillatuvchi yo’llar, normalar, qoidalarni bilish yordam beradi. Doimiy va uzoq muddatli mashaqqatli mehnat o’quvchilarda ko’z bilan chamalash, sxema va qoidalar asosida rasm chizish malakalarini samarali shakllantirishga olib keladi.

Mashxur rassom Alberti o’zining "Haykal haqida" nomli traktatida shunday deydi: "San’at qoida va uslublarda o’rganiladi, so’ngra amaliyotda o’zlashtiriladi".

Odam gavdasi rasmini chizishda eng avval uning gavda tuzilishini o’rganib chiqish zarur. Odam gavdasining shakli uning suyak tizimi-skeletning tuzilishiga bog’liq. Sklet bosh suyak, gavda, qo’l va oyoq suyaklaridan tashkil topgan. Sklet rasmini kalla suyagi rasmini turli tomondan xomaki holatda chizishdan boshlagan ma’qul (8-rasm).



8-rasm. Odam skeleti tuzilishi: a-odam skeleti; b-kalla suyagi.

a b

Odam kallasining tanaga bo’lgan nisbati yoshga ko’ra turlicha bo’ladi. Kalla o’lchami umumiy bo’yga nisbatan katta yoshdagilarda 7-8 marta kichik, yosh bolalarda 4-5 marta kichik bo’ladi (9-rasm). Ammo bu qoida individual xarakterga ega. Shu sababli odam qomatini naturaga ko’ra chizishda gavda qismlarining nisbatlariga jiddiy e’tibor berish lozim [13].



9-rasm. Erkak, ayol va bolalar qomati rasmini umumiy holda chizish.

### II.2. Oddiy geometrik jismlarning rasmlarini ishlash

Naturaga ko'ra rasm ishlash o'quv-tafakkurli va badiiy-ijodiy jarayonlarga bo'linadi. O'tkir ko'z va kuzatuvchanlikning o'zi rasm chizish uchun yetarli emas. Naturani yaxshi va to'g'ri chizish uchun buyum shaklining tuzilishi, ko'zdan yashirin va ichki tomonlarini, asosi-konstruktsiyasining o'ziga xos tomonlarini bilishi va tushunishi kerak. Konstruktsiyalash - bu tashkillash, yaratish, ko'rish, tayinli reja asosida o'zaro biriktirishdir. Buyum rasmini chizishda uning konstruktsiyasini taxlil etish orqali buyumning ko'rinadigan va ko'rinmaydigan tomonlarini, uning tarkibiy qismlarini to'liq tasavvur etishga imkon beradi. Buyumning shakli qanchalik murakkab bo'lsa, uning tuzilishini batafsilrok o'rganish kerak bo'ladi. Odam qomati rasmini ishlashda odam qomati konstruktsiyasidan tashqari o'quvchidan anatomik bilimlarni bilish ham talab etiladi. Odam qomati rasmini yaxshi va savodli bajarish uchun o'quvchi odam ichki tuzilishini bilishi kerak. U odam qomati shakli va sklet suyaklari o'lchamlari, muskullar shakli va ularning birikish joylarini aniq va to'g'ri tasavvur qilish kerak.

Odam gavdasini chizish uchun uning tarkibiy qismi bo'lgan suyaklar, muskullar, paylar va boshqalarning tuzilishi, tarkibiy qismlari va anatomiyasini bilish zarur. O'quvchi chizilayotgan buyum shakli va xarakteri haqida obrazli tasavvurga ega bo'lmay turib uni to'g'ri va real holatda chiza olmaydi.

Buyuk italyan rassomi Mikelanjelo Bionarotti "Qo'l bilan emas, kalla bilan chiziladi" deb bekorga aytmagan. Rasm chizishda buyumni birinchi ko'rishdagi taassurotlar o'quvchini adashtirishi mumkin, chunki bu taassurotlar natura haqida noto'g'ri tasavvur berishi mumkin. Rasmni to'g'ri chizish uchun natura tuzilishining o'ziga xos tomonlarini tushinib yetish kerak.

Chizilgan natura o'quvchi tomonidan quydagicha tasavvur eliladi:

1. Natura bilan bevosita duch kelish, birinchi tasavvur - jonli tasavvur.
2. Naturani o'rganish va tahlil etish-abstrakt tasavvur.
3. Naturani tasvirlash-amaliyot.

O'quvchilar avval geometrik shakllarni chizishni mashq qilishlari kerak (10-rasm).



10-rasm. Oddiy geometrik shakllarning rasmlarini chizish.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchi rasm chizishni boshlayotganda avval naturaning umumiy ko'rinishini, so'ngra uning detallari va mayda elementlarini ilg'ab oladi. Bu qonuniyatga amal qilgan holda har qanday naturani, xususan, odam qomatini chizishni umumiy tarzda chizishdan boshlash kerak.

Tasvirning qog'oz yuzasidagi joylashish kompozitsiyasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tasvirning qog'oz yuzasiga chiroyli va ratsional masshtabda joylashtirishga katta e'tibor berish kerak. So'ngra qalamni tez va yengil harakat qildirish orqali buyumning umumiy ko'rinishi belgilab olinadi, so'ngra yana bir bor kompozitsiya va buyum shaklining xarakteri aniqlab olinadi. Undan so'ng buyum asosiy shaklining konstruktsiyasini aniqlab olinadi. Bunda qalamni qog'oz yuzasida kuchli bosmaslik kerak. Buyumni to'g'ri tasvirlash qalamni qog'oz yuzasida kuchli bosib chizishga bog'lik emas.

Buyumning konstruktiv asosi chizib bo'lingach, perspektiva asosida rasm chizishni amalga oshiriladi.

Odam atrof-muhitni perspektiva qonuniyatlari asosida ko'radi. Perspektiva qonuniyatlariga ko'ra yaqindagi buyumlar uzoqdagilardan kattaroq ko'rinadi. Ko'chaning o'rtasida turib qaralsa, ko'zatuvchidan uzoqlashgan sari ko'cha torayib borganibek, elektr

tarmog'i stolbalari kaltalanib ko'rinadi. Bu qonuniyatga ko'ra quyidagi rasmda kub perspektivasi tasvirlangan (11-rasm). Rasm chizishda qalamni qo'l bilan quyidagicha tutib turgan holda ishlanadi.



11-rasm. Kub rasmini aksonometriya va perspektivada chizish.

Chizilgan rasmlarda shtrixlar yordamida ishlov beriladi shtrixlarning shakli, zichligi orqali buyum hajmiyligi va yoritilganligini obrazli ifodalash mumkin [33].

Umuman olganda odam qomati rasmini ishlashga kirishishdan avval o'quvchi yassi oddiy va hajmiy geometrik shakllar, sodda va murakkab geometrik shaklga ega bo'lgan buyumlar, buyumlar to'plami (natyurmort), manzara hamda odam kallasi rasmini chizib ko'rishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishim odam qomati rasmini ishlash mavzusiga oid bo'lgani uchun men odam qomati rasmini qanday tartibda ishlash va odam gavdasida kiyimni qanday tasvirlashni bayon etish bilan cheklandim.

### II.3. Odam qomati rasmini ishlash tartibi haqida

Naturaga ko'ra rasm ishlash ikkiga bo'linadi: uzoq muddatli rasm ishlash va qisqa muddatli rasm (qoralama) ishlash. Uzoq muddatli rasm ishlashda o'quvchilar rasmning alohida qoida va qonunlarini chuqur va har tomonlama o'rshganadilar. Rasm ishlashning bosqichlariga alohida etibor bilan yondashadilar. Qoralama ishlashda o'quvchilar qisqa vaqtda o'z bilim va ko'nikmalarini tez, yengil va erkin o'zlashtirishga erishadilar.

Odam qomati rasmini ishlashda o'quvchilar qomat qismlarining nisbatlarini, odam tanasining tuzilishining anatomik xususiyatlarini o'rganadilar. O'quvchi uzoq muddatli rasm ishlashda perspektiva qonunlarini, odam qomatida yorug'likning tarqalishini va boshqalarni asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi.

Naturaga ko'ra odam qomati rasmini chizish quydagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Rasmni qog'oz yuzasida kompozitsion joylashtirish va shaklning umumiy xarakterini aniqlash. Naturani ko'zdan kechirish va qog'oz yuzasida uni qanday joylashtirishni aniqlash.

2. Odam qomati shaklini yorug'-soya asosida plastik modellashtirish va natura detallarining xarakteristikasi.

3. Bajarilgan ishlarni umumlashtirish.

Xomaki rasm ishlash deb, naturadan qisqa vaqt ichida qoralama ishlashga aytiladi. Xomaki rasm ishlashning asosiy maqsadi o'quvchida ko'zatuvchanlik, mobelning plastik xarakteristikasi, proportsiyasi va harakatini tez ilg'ab olishdir. Xomaki rasm ishlash ko'z bilan aniq o'lchov olish, mavjud vaziyatda tez va to'g'ri yo'l topishga o'rgatadi.

O'quvchilar maktab tasviriy san'at dars mashg'ulotlaridayoq natura asosida xomaki rasm ishlashga o'rganishlari kerak. Xomaki rasm ishlash o'quvchini ijodiy kompozitsion ishlarni bajarishga tayyorlaydi. Xomaki rasm ishlash belgilangan vaqt mobaynida ko'zatilayotgan natura haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga olib borishi kerak. Bo'lg'usi tikuvchi naturaga ko'ra odam qomatini turli holatda chizishni o'rganishi kerak.

Harakatlanayotgan odamning xomaki rasmini ishlash orqali sodda va takrorlanuvchan harakatlar (odimlayotgan odam, ishlayotgan odam) o'quvchilarda ilg'ab olish malakalarini shakllantiradi.

O'quvchi odam qomati kinematikasini, odam asosiy tana a'zolarining mexanikasini o'rganishlari kerak.

Odam harakati uchun qo'l va oyoq harakatining o'ziga xos tomonlari, yelka, bel, umurtqalarning odam harakatidagi vaziyatlari o'zgarishining qonuniyatlarini va bosqichlarni bilish zarur.

Odam qomati rasmini ishlash uchun odam tanasining tuzilishini yaxshi bilish kerak. Odam tanasi tuzilishini aniq va ravshan tasavvur qilish tananing tashqi tuzilishi nimaga bog'liq

holda shakllanishini, kiymining qay darajada ko'rinishini chiroyli tasvirlay olishga yordam beradi.

O'quvchi odam qomatining tashqi ko'rinishini kuzatar ekan, uning plastik anatomiyasini o'rganadi. Tananing ichki tuzilishini tasavvur qilish orqali odam qomati tuzilishining qonuniyatlarini bilishga intiladi.

Uyg'onish davri rassomlari tabiatni ilmiy bilishga asoslangan holda odam qomati nisbatlarini aniqlashda juda katta aniqlikga erishganlar. Masalan, Alberti va Dyurer odam qomati nisbatlarini o'rganishar ekan, tananing har bir qismini katta matematik aniqlik bilan o'lchashgan, o'lchov natijalarini amaliyotda tekshirib ko'rishgan va ularni umumlashtirib xulosalar chiqarishgan.

Odam qomati rasmini chizishda perspektiva, anatomiya qoidalariga qat'iy amal qilish kerak. Har bir o'quvchi rasm chizishga o'zicha yondoshadi, ammo muskul, suyak, paylarni joylashish qonuniyatlariga to'liq rioya qilgan holda faoliyat ko'rsatishi va soya-yorug', nisbatlar, konstruktsiyalarga ham amal qilishi shart [34].

Odam qomatini o'rganar ekanmiz, shakllar tuzilishi qonuniyatlari va estetik guzallikning uzviy bog'liqligini xis etamiz. Qadimgi grek rassomlari odam qomati tuzilishini o'rganishar ekan to'liq qomat, uning qismli nisbatining aniq matematik qonuniyatlarini kashf etishgan va odam qomati, proportsiyasi guzalligi qonun ekanligini aniqlashgan.

Odam kallasidan tovonigacha bo'lgan ja'mi qismlari harakat paytida turlicha va o'zaro mutanosib vaziyatlarni oladi (12-rasm).



12-rasm. Odam qomatining muvozanat sxemasi.

Odam gavdasi rasmini chizishda birinchi navbatda o'q chiziq chizib olinadi va unda gavdaning holati hamda o'lchovlari aniqlab olinadi (13-rasm). Xomaki ishlarda ko'z, og'iz, burun kabi odam tanasining mayda elementlarini aniq tasvirlash shart emas [13].



13-rasm. Bola rasmini chizish tartibi.

Odam qomati rasmini chizishni o'quvchilarga o'rgatishda odam skeletining tuzilishi, muskul guruhlari va paylarining asosiy kombinatsiyalari odam tanasi plastikligiga qanday ta'sir etishini tushuntirish kerak bo'ladi. Odam tanasining plastik tuzilishini tushuntirishda asosiy muskullarning ishlashi, shaklning o'ziga xos tomonlari, ularning boshlanish va tugash joylariga alohida e'tibor berish lozim.

Odam qomatini gipsdan yasalgan model yoki naturadan bajarish tartibi tasvirning kompozitsion yechimini topish, rasmda odam qomatining qo'yilishini aniqlash (14-rasm), proportsiyani topishdan iborat bo'ladi.



a b

14-rasm. Odam qomatining muvozanat o’qi:
a-ikki oyoqqa tayangan odam qomatining muvozanat o’qi;
b-bitta oyoqqa tayangan odam qomatining muvozanat o’qi.

Proportsiyalarni o’rganish yordamida odam qomati alohida qismlarining o’lchamlarini aniq topish mumkin bo’ladi.

Qadimga misrliklar uzunlik birligi sifatida o’rta barmoqning uzunligini olishgan. Leonardo da Vinchi odam qomati proportsiyasini topishda "Qadimgilar kvadarati"dan foydalangan (15-rasm).



a b c d e

15-rasm. Odam qomati proportsiyasi: a- Qadimgi Misr; b- Leonardo da Vinchi. "Qadimgilar kvadarati"; c-Mikelanjelo. Odam qomati proportsiyasi; d-A.Sapojnikov. Odam qomati proportsiyasi; e-A.P.Losenko. Odam qomati proportsiyasi.

Odam qomatini chizishda uni teng ikki qisimga  olish kerak. Rasm chizishni boshlayotgan o’quvchi uchun bu juda muhim. Qog’oz yuzasini teng ikki bo’lish orqali chizilayotgan odam qomatining bo’yini belgilab olish mumkin, so’ngra odam tanasi boshqa a’zolarining o’lchamlarini aniqlash mumkin. Kalla uzunligi odam bo’yining taxminan 7/2 qismiga teng bo’ladi (16-rasm).




16-rasm. Odam qomati proportsiyasi:
A-chiziq-odam  bo’yining o’rtasi;
B-chiziq-Yelka suyagi chizig’i;
V-Dumg’aza chizig’i;
G-tizza chizig’i.

Quydagi rasmda o’lchamlari bir xil bo’lgan tana qismlari ko’rsatilgan.



a b

17-rasm. Odam tanasi qismlari proportsiyasi.

Turli odamlarning gavda tuzilishi turlichadur. Masalan, ba’zi odamlarning kallasi katta, ba’zilarniki kichkina, kimdir yelkador, kimdir nozik, kimnidir beli uzun, kimnidir oyog’i uzun va, aksincha. Shuning uchun tikuvchilik kasbini o’rganayotgan o’quvchi odam qomatining ana shu jihatlarini bilishi kerak. Bu ayniqsa, yakka tartibga buyurtma asosida faoliyat bilan shug’ullanuvchi tikuvchilar qat’iy amal qilishi zarur bo’lgan o’lchamlardir.

Odam tanasining idividual nisbatlaridagi umumiy nisbatlardan chetga chiqishlar uncha katta bo’lmaydi, ya’ni tabiat hech qachon odam qomati nisbatlari qonuniyatini buzmaydi. Misol sifatida shuni aytish mumkinki, bel suyagi hech qachon boldir suyagidan qisqa bo’lmaydi (17-rasm).

4. Shakl xarakterini yuzaga chiqarish.

Odam qomatini umumiy holda belgilab, so’ngra uni bir necha bor natura asosida tekshirib ko’rgach, uning xarakterini yuzaga chiqarishga o’tiladi. Odam qomatining konsturuktiv asosini perspektiva qonunlariga asoslangan holda bajariladi.

Qomatning konstruktiv asosini ifodalash orqali qomatning xarakteri ochib beriladi. Odam qomatining konstruktiv tahlil jarayonida qomatning har bir qismini diqqat bilan ko’zdan kechirish kerak bo’ladi. Masalan, kalla va bo’yin, bel va oyoqlarni o’zaro to’g’ri joylashining hal etish bajarilayotgan rasmni chiroyli chiqishiga yordam beradi.

Odamning kiyimini yelkalar tutib turadi va kiyim yoqasidan odamning bo’yni ko’rinib turadi. Shuning uchun yelka suyaklarining joylashishi va ularning umumiy shaklini to’g’ri tasavvur etish odam qomatini to’g’ri va chiroyli tasvirlashda muhim ahamiyatga ega (17-rasm).



18-rasm. Ko’krak qafasi.



19-rasm. Tors sxemasi.

Agar yelkaga yuqoridan qarasak u ABCD romb shaklida ko’rinadi. AB va BClar kuraklar, AD va DC lar yelka oldi suyaklaridir. AC va BDlar rombning diagonallari bo’lib, ular o’zaro kesishgan joyda bo’yin joylashgan bo’ladi.

Yelkaning yuqori qismi nisbatan harakatchan bo’lib doimo ko’rinib turadi.

Inson tanasining tashki shakli suyak va muskillar anatomik strukturasining qanday ko’rinishda ekanligini ifodalaydi (18-rasm). Chiroyli, konstruktiv rasm chizilayotgan rasmning boshlang’ich asosi hisoblanadi.



20-rasm. Odamning o’tirgan holatdagi rasmi.

Odam qomatining konstruktiv tahlili usulini o’zgartirish uchun bir qator mashqlarni bajarishga to’g’ri keladi (20-rasm). Ammo bu xali odam qomati rasmini to’liq va tugallangan holda ishlash uchun yetarli emas. Buning uchun odam qomatini anatomik tomonidan tahlil etish kerak bo’ladi.

5. Anatomik tahlil.

Odam qomatini realistik tasvirlash chuqur nazariy bimlarni talab etadi. Tinch holatdagi va harakatdagi muskullar shaklining xarakterini bilmay turib odam anatomiyasini o’rganib bo’lmaydi. Shu bilan birga zo’riqqan va bo’sh holatda o’zaro qanday nisbatlarda bo’lishini bilish kerak. Odam qomati detallariga alohida e’tibor berish kerak. Aksariyat hollarda qo’l va oyoq shaklini chizish yengil kechadi. Ammo uning detallarini chizish bosqichi qiyinroq kechadi. Buni ijobiy hal etishda shakl tuzilishining qonuniyatlariga jiddiy amal qilish kerak bo’ladi. Odam qomatining asosiy anatomik strukturasini to’liq bajarib bo’lgach qomat detallariga to’la ishlov berishga o’tish mumkin.

6. Qomat detallariga ishlov berish.

Qomat detallariga ishlov berishda tana plastikasining o’ziga xos tomonlariga, teri-yog’ qatlamining tana tashqi ko’rinishiga ta’siri, teri burmalarining holatiga e’tibor bergan holda ishni

davom ettiriladi. Bu bosqichda yorug'-soya hodisasi (o'z soyasi, tushuvchi soya va refleks)ga ham alohida e'tibor qilish kerak.

7. Ishni yakunlash va rasm rangini ifodalash.

Ushbu bosqichda chizilgan rasm bir butunlikda ko'zdan kechiriladi. Yo'l qo'yilgan xatoliklar (Muskul shakllarining ifodalanishiga nisbatlarning buzilishi, qomatdagi biror detalning boshqalarga nisbatan ajralib ko'zga tashlanishi kabi) tuzatib chiqiladi. So'ngra rasm refleksi kuchi tekshirib chiqiladi va kamchiliklar tuzatiladi.

Navbatda rasm perspektivasi rangi ko'zdan kechirib chiqiladi va kamchiliklar tugallanadi.

Bo'lg'usi tikuvchi odam qomatini chizishni yaxshi bilmay turib odamning kiyingan xoldagi rasmini chiroyli va sifatli bajara olmaydi. Kasb-hunar kolleji o'quvchisi maktabda tasviriy san'atdan odam rasmini kiyimi bilan chizish mashqlarini sinfdan tashqari fakultativ mashg'ulotlarda bajarishgan.

Kiyimli odam qomati rasmni chizishda kiyim burmalari strukturasiga aloxida e'tibor berishi kerak. Odam tanasidagi kiyim burmalari doimo o'zgarib turadi. Ammo qo'l tanasidaga va tizzadagi burmalar deyarli o'zgarishsiz saqlanadi. Aksariyat hollarda o'quvchi kiyim burmalarini o'zgarishini tasvirlash maqsadida rasmni qayta-qayta chizadi va nisbatlarda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi. O'quvchilarga kiyim burmalarining xosil bo'lish qonuniyatlarini batafsil tushuntirib berish kerak. Naturaning konstruktiv tuzilishi qonuniyati uni kim ko'zatishidan qat'iy nazar o'zgarmaydi. Har qanday buyumda shakl tuzilishining aniq qonuniyatlari mavjud. O'quvchining tajribasizligi natijasida kiyimli odam qomati rasmini chizishda, ayniqsa, o'tirgan holatdagi odam qomati proportsiyasida xatoliklarga yo'l quyilishi mumkin. Ko'p hollarda oyoqlarni kaltaroq chizib xatoga yo'l qo'yiladi. Haqiqiy o'lchamlarni skelet asosida tekshirib ko'rish mumkin.

Natura tuzilishi qonuniyatini qanchalik to'g'ri tushunilsa, rasm shunchalik sifatli bajarilgan bo'ladi. Shuning uchun kiyimdagi odam qomatini to'g'ri ko'ra olish uni tahlil qilish va tiklashda realistik tarzda ifodalash rasm chizishni asosiy jihati xisoblanadi.

Maxsus rasm fanida natura asosida rasm ishlashning asosiy vazifasi naturani to'g'ri ko'ra olish, tushunish va tasvirlashdir. Tasvir real haqiqatni aynan ifodalashi kerak.

O'quvchi odam qomati anatomik tuzilishi va konstruktiv tuzilishini to'g'ri anglay olishi kerak. Bunda subyektiv xususiyatlarga berilib bo'lmaydi. O'quvchi naturani qanday ko'rishidan qat'iy nazar naturaning ichki konstruksiyasi va anatomik tuzilishi qonunlari o'zgarishsiz qoladi.

O'quvchilar organizmining fiziologik tuzilishi va turli xil intellektual darajasi tufayli ular odam qomatini turlicha ko'radilar. O'quv mashg'ulotlarida o'qituvchi o'quvchilarning ana shu jihatlarini e'tiborga olgan holda ularga odam qomatini qanday chizish kerakligini tushuntirishi kerak. Ba'zi bir o'quvchilar naturaning tuzilish xususiyatlarini tezda ilg'ab olmaydilar. Bu ularning odam qomati bo'yicha bilimlarining yetarli emasligidadir. Demak, ushbu holatda biz o'quvchiga odam qomatining tuzilish qonuniyatlari bo'yicha tushunchalarni eslatib o'tishimiz kerak. Odam qomati rasmini chizish bo'yicha dars mashg'ulotlarida o'quvchilarni naturani to'g'ri tahlil etish, undagi eng xarakterli va o'ziga xos tomonlarni batafsil tushuntirib berishga erishishimiz kerak.

Odam qomati tuzilishini o'ziga xos tomonlarini bilmay turib kiyimli odam rasmini ishlaganda tasvir jonli chiqmaydi.

Kiyimli odam qomati rasmini ishlashda quydagi tartibda amal qilish kerak:

1 Odam qomatini umumiy holda ko'zatish. Tanani tayanch o'qini topish, harakatini hamda kiyim burmalarini aniqlash.

2 Tanani bir butun xoldagi va qismlarining proportsiyalarini ko'zdan kechirish.

3 Tananing xajmiy - plastik sifatlarini kuzatish va uni rasmda ifodalanishini tasavvurga keltirish.

4 Tananing anatomik tahlilini bajarish va kiyim burmalari shaklining odam qomati tuzilishining o'ziga xos tomonlariga mosligini o'rganish.

5 Natura (odam qomati) detalining xarakteristikasini bajarish.

Naturani kuzatish va tahlil etish bosqichida o'quvchi har bir buyum burmalarini to'liq tushunishi hamda iloji boricha aniq tasvirlay olishga intilishi kerak. Kiyimni chizishdan avval uning tuzilishini to'liq anglab yetish kerak.

Kiyimli odam qomatini chizishning kiyim va uning burmalarini tasvirlab bo'lingach, undagi tesmalar, tugmalar va boshqa elementlarini chizishga o'tiladi.

**II.4. Umumta'lim maktablari va kasb-hunat kollejlarida o'qitiladigan fanlarda odam qomatiga oid bilim, ko'nikma va malakalarning berilishi haqida**

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartiga binoan tasviriy san'at fanida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari shartligi ta'kidlab o'tilgan [27]:

1. Odam gavdasining anatomik nisbatlari haqida nazariy ma'lumotlarga ega bo'lish, odam gavdasining harakatdagi holat qonuniyatlari (tayanch nuqtasi, harakat dinamikasi)ni bilish.
2. Naturaga qarab portret chizish, o'rta murakkablikda odam gavdasi, uning tuzilishi, qismlari nisbatlari, ishlash xususiytatlari.
3. Karkaslardan foydalangan holda harakatdagi va harakatsiz odam gavdasini tasvirlash, turli mavzularda hayoliy tarzda portret janrida rasm ishlash.
4. Haykaltaroshlikda odamni obrazli tasvirlash.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartiga binoan umumta'lim maktabi mehnat ta'limi fanida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar:

1. Odam gavdasidan o'lchov olish va yozish, hisoblash formulasidan foydalanish.
2. Kofta va yubkalar chizmasini chizish, tikilayotgan kiyimni birinchi kiydirib ko'rish va kamchiligini tuzatish.
3. Bolalarning sport va bayram kiyimlari, to'y va bayram kechalari kiyimlari uchun yangi modellar eskizini yaratish.
4. Milliy liboslardan ko'ylakni tikish.
5. Gazlamaga ishlov berishga oid kasb-hunar turlari va dizayner-modelyer kasbi to'g'risida tushunchalarga ega bo'lish.




21-rasm Odam gavdasidan o'lchov olish: 1-yettinchi bo'yin umurtqasi; 2-ko'krak aylana chizig'i; 3-bel chizig'i; 4-son chizig'i; 5-umumiy uzunligi; 6, 7-yelka qismining uzunligi; 8-yeng uzunligi; 9-ko'krak o'rtasi; 10-yubka uzunligi; 11-ko'krak aylanasi; 12-ko'krak osti; 13-yoqa; 14-bel aylanasi; 15-son aylanasi; 16-tirsakkacha uzunlik; 17-tirsak aylanasi; bilakning quyi qismi aylanasi; tizzagacha uzunlik; 20-umumiy uzunlik; 21-odim uzunligi.

Misol sifatida 7-sinfda o'quvchilarga "Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi" bo'limi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilishi ko'zda tutilgan [28]. Odam gavdasidan o'lchov olganda odam qo'llarini tushirib to'g'ri turishi va o'zini etkin tutisgi lozim. Odam gavdasidan o'lchov olish quyidagi tartibda amalg oshiriladi:

1. Avval belga tasma yoki belbog' boylab, bel chizig'i aniqlab olinadi.
2. Orqaning belgacha bo'lgan uzunligi bo'yinning yettinchi umurtqasidan boshlab belgacha o'lchanadi.

3. Yelka kengligi bo'yinning asosidan o'mrov suyagining uchigacha yelka bo'yicha o'lchanadi.
4. Bo'yin aylanasi bo'yin asosi bo'yicha bo'yin chuqurchasining o'rtasigacha o'lchanadi.
5. Ko'krak aylanasi santimetrli lenta ikkala qo'ltiq tagidan o'tkazilib, ko'krak gir aylantirib o'lchanadi.
6. Kiyimning umumiy uzunligini olishda ham bo'yinning yettinchi umurtqasidan boshlab o'lchanadi.

Shu tartibda ko'krak markazlari oralig'i, ko'krak ostining aylanasi, bel aylanasi, bo'ksa aylanasi, tirsak aylanasi, bilak aylanasi, yeng uzunligi, yengning tirsakkacha uzunligi, yubka uzunligi, shimning tizzagacha uzunligiog' chizig'ining uzunligi, o'tirish chizig'i kabilarning o'lchovi olinadi (21-rasm).

Quyidagi tasvirlarda turli xil kiyimlarni tikish uchun ayollarning rasmlari berilgan (22-rasm).



22-rasm. Odam qomatining turli kiyimlardagi ko'rinishiga misollar.

Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standartiga binoan Odam va uning salomatligi fanida o'quvchilar odam tanasining tarkibiy qismlari bo'lgan suyaklar, muskul va paylar, odam gavdasining muvozanati va harakati, qad-qomatning shakllanishi haqida ma'lumotlar oladilar. Odamning bo'yi va vaznini antropometrik o'lchab, tana ayrim qismlari o'lchamining o'zaro munosabatini aniqlaydilar [32].

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ta'lim tizimida tub islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, umumta'lim maktabi va oliy o'quv yurtlari oralig'ida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tizimi tashkil etildi. Viloyatimizda ham bugungi kunda turli xil sohalarga kichik mutaxassislar tayyorlab beruvchi yuzdan ortiq kasb-hunat kollejlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning aksariyatida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasi mutaxassisliklari mavjud. Xususan, men bitiruvoldi pedagogik amaliyotini o'tagan Namangan shahar savdo va maishiy xizmat kasb-hunat kollejida aholiga servis xizmati ko'rsatish bo'yicha "3540612-Tikuv va tikub-trikotaj buyumlarini ishlab chiqarish texnik-texnologiyasi" mutaxassisligi bo'yicha kichik mutaxassis kadrlar tayyorlanadi. Ushbu mutaxassislikda "Kiyim loyihalash asoslari", "Tikuv ishlab chiqarish texnologiyasi", "Tikuvchilik ishlab chiqarish texnologiyasi", "Tikuvchilik korxonalari jihozlari" va "Kiyimlar modellarini yaratish va badiiy bezash" kabi kasbiy fanlar bilan bir qatorda "Maxsus rasm" kasbiy fani ham o'qitiladi.

"Maxsus rasm" fani o'quvchilarni go'zallikni hiz etishga o'rgatadi, ularda ezgulik, badiiylik hislarini uyg'otadi, go'zal asarlar yoki buyumlar yaratishga chorlaydi.

O'quvchilar ushbu fanda kishi gavdasi va uning elementlarini aniq o'lchov asosida chizish, ularning harakati, holati va gavdaga kiyintirilgan kiyim bo'laklarining o'ziga xos tomonlari bilan tanishadilar. Erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlaridagi farqlarni tahlil etadilar va shular asosida erkaklar, ayollar va bolalar kiyimlari modellarini yaratishni o'rganadilar.

"Maxsus rasm" fanidan dars mashg'ulotlarida o'quvchilar turli xil perspektiv rasmlarni chizish, natyurmort va naqshlar ishlash asosida asta-sekin kishi gavdasini modul asosida chizish, qo'l va oyoqlarning harakatdagi ko'rinishini kuzata va chiza olish ko'nikmalari zamirida har xil kiyimdagi erkak kishi, ayol va bolalarning turli holatdagi vaziyatlarini chizadilar.

Bosh, qo'l, oyoq nisbiy o'lchamlarini e'tiborga olgan holda harakatdagi kishi holatlarini chizish, burilgan gavdaga kiyim kiyintirilgan holatdagi tasvirini chizish, kiyim bo'laklaridagi buklanish hisobiga hosil bo'ladigan soyalarni tasvirlash, ayollar, bolalar va erkaklar gavda tuzilishini kiyim kiygan holda eskizini chizish bo'yicha bilimlarga ega bo'lishlari kerak.

"Maxsus rasm" fanidan o'quv rejasiga ko'ra o'quvchilar 5 soat ma'riza tinglaydilar, 35 soat amaliy mashg'ulot va 17 soat mustaqil ish, jami 57 soat o'quv yuklamasi bajaradilar. 40

soatlik auditoriya mashg’ulotining 12 soati bevosita kiyim modellarini chizish, kishi gavdasining burilgan holatida kiyim bilan chizishga ajratilgan bo’lib bu mashg’ulotlar fan bo’yicha o’quv mashg’ulotlarining oxiriga rejalashtirilgan [29].

Umumiy o’rta ta’lim maktabida o’qitiladigan odam anatomiyasi, tasviriy san’at, salomatlik, adabiyot, jismoniy tarbiya va mehnat ta’limi kabi bir qator fanlarda odam qomati, uning tuzilishi, tana qismlarining nisbiy o’lchamlari, tananing turli vaziyatlardagi ko’rinishi, erkaklar, ayollar ba bolalar tana tuzilishining o’ziga xosligi, kiyimlar, kiyinish madaniyati, mavsumiy kiyimlar haqida boshlang’ich hamda umumiy ma’lumotlar beriladi, xolos. Shu tufayli “Maxsus rasm” fanida odam qomati, uning turli vaziyatlari, erkak, ayol va bolalarning kiyimli rasmlarini chizishda o’ziga xos muammolar kelib chiqadi. Kasb-hunar kollejlarining “3540612-Tikuvchilik ishlab chiqarish” kichik mutaxassisligi bo’yicha taxsil olayotgan o’quvchilari o’z kasblarini yaxshi egallashlari uchun odam qomatini mutanosib nisbat va turli vaziyatlarda hamda kiyimlarda chizish bo’yicha yetarli bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’lishlari muhim ahamiyatga ega. KHKida o’quvchilar “Kiyim loyihalash asoslari” fanida “Odam gavda tuzilishi, gavdadan o’lchov olish va qo’shimchalar” mavzusida gavda tuzilishining tashqi ko’rinishi tavsifini, erkaklar, ayollar va bolalar gavda tuzilishi tavsifini, gavdaning asosiy antropometrik nuqtalarini o’rganadilar. Amaliy mashg’ulotda gavdadan o’lchov olish, gavda razmeri, bo’y va to’lalik gruppasini aniqlaydilar, aniq gavda o’lchovlarining tipik gavdadan farqini aniqlaydilar. Ishlab chiqarish korxonasida o’tadiga amaliyotda tegishli o’lchovlarni antropomrtrik anjomlardan foydalanib olish va shkala bo’yicha gavda o’lchovlarini belgilashlarni bajaradilar.

Bo’lg’usi tikuvchilar yakka tartibda yoki seriyali kiyim ishlab chiqarish sohasida mehnat qilishlaridan qat’iy nazar odam gavdasining tuzilishi, gavda detallarining nisbiy o’lchamlari, odam tanasidagi maxsus nuqtalar, gavdaning antropometrik chiziqlari (23-rasm), buyurtma berayotgan odam gavdasining o’ziga xos tuzilishini tahlil etmay turib odam gavdasidan to’g’ri o’lchov olishda xatolarga yo’l qo’yishlari mumkin. Shunday fikrni yangi kiyimlarni loyihalash bosqichiga ham taalluqli ekanligini ta’kidlab o’tamiz.







23-rasm. Gavdaning antropometrik chiziqlari.
$B_n$-bo’yin konstruktiv chizig’i (bo’yin o’yindizi va yoqani shakllantirish uchun);
Ye-yelka konstruktiv chizig’i (yelkali kiyimlarni loyihalash uchun);K-ko’krak konstruktiv chizig’i (kiyim kengligi va razmerni aniqlash uchun;
$B_l$-bel konstruktiv chizig’i (bel kiyimlarini loyihalash);
$B_k$-bo’ksa konstruktiv chizig’i (kiyimning bo’ksadagi kengligi va razmerini aniqlash uchun);
T-tizza konstruktib chizig’I (kiyimning tizzadagi kengligini aniqlash uchun);
$T_q$-to’piq konstruktiv chizig’i (kiyimning pocha qismi kengliklarini aniqlash uchun):
Q-qo’l konstruktiv chizig’i (yengning yuqori va etak qismi kengliklarini aniqlash uchun);
1-orqaning o’rta markazidan o’tadigan konstruktiv chiziq;
2-bo’yin asosi kengligi konstruktiv chizig’i ;
3-yon konstruktiv chizig’i;
4-oldinda o’rta markaziy konstruktiv chiziq.




Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, kiyimlarni loyihalash, buyurtma asosida kiyimlar tikishda tikuvchi odam gavdasining individual tuzilishini to'liq ko'z oldiga keltirib olishi va shu asosda uning yoshi, jinsi, kasb-kori, jamiyatda tutgan o'rniga moslab unga turli xil modellarni taklif etishi yoki buyurtlachi xohlayotgan model asosida kiyimlarni tika olishi kerak.

Quyida turli xil kiyim modellaridan namunalar keltirilgan (24-rasm).









24-rasm. Turli xil kiyim modellaridan namunalar.

**II.5. Ilg'or pedagogik texnologiyalar haqida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov O'zbekiston Republikasi Oliy majlisining 1997-yil 29-avgustdagi IX sessiyasida shunday degan edi: "Ta'lim O'zbekiston xalqi ma'naviyatiga yaratuvchilik faoliyatini baxsh etadi. O'sib kelayotgan avlodning barcha eng yaxshi imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzluksiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasini anglab olinadi va yosh avlodga o'tadi". O'zbekistonda ta'limning yangi modeliga asos solindi, ta'lim tizimining kelgisi istiqbollari asoslab berildi.

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bo'lgani singari, ta'lim tizimida ham katta islohotlarga yo'l ochib berdi. Ta'lim tizimida tub islohotlar o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish orqali amalga oshirilishi muqarrardir. Shuning uchun "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quv-tarbiya jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlashga jiddiy vazifalardan biri sifatida qarab kelinmoqda.

Ta'lim tizimida "O'zbek modeli"ning yaratilishi jamiyatda o'ziga xos "Portlash effekti"ni yuzaga keltiradiki, bu o'z navbatida quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:
-ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir oqibatida jamiyatdagi mavjud muhitning yangicha shakllanishi;
-o'quvchi yoshlarning hayotda o'z o'rinlarini topish jarayonining tezlashishi;
-erkin fikrlovchi shaxsning shakllanishi;
-jamiyatdagi potentsial kuchlarning ro'yobga chiqishi;
-fuqarolik jamiyatini qurish.

Ma'lumki, har qanday pedagogik tizim o'zaro bog'liq bo'lgan elementlar (o'quvchilar, ta'lim maqsadlari, ta'lim-tarbiya mazmuni, didaktik jarayonlar, tashkiliy shakllar, o'qitishning texnik vositalari)dan tashkil topadi.

Pedagogik tizim doirasida didaktik masalalarni amalga oshirish (shaxsda ma'lum sifatlarni shakllantirish)ning shart-sharoitlari (o'quvchilarning boshlang'ich sifat ko'rsatkichlari) va bu faoliyat uchun axborotlar (o'quv predmetining mazmuni va tarbiyaviy ta'siri) bo'lishi kerak.

Ta'lim jarayonining "texnologik" qurilishi bir qator muammolar (didaktik maqsadlarni ishlab chiqish, didaktik maqsadlarni muvofiq tarzda tarkib toptirish, ta'lim jarayonini loyihalashtirishda uning shakl va mazmun muvofiqligini ta'minlash, o'quvchilar tomonidan tajribaning to'laqonli o'zlashtirilishi, barcha o'quvchilarning saviyasini tenglashtirish va oshirish)ni keltirib chiqaradi.

Kasb-hunat kollejlarida bo'lg'usi mutaxassislarni xalq ho'jaligida mehnat qilishga tayyorlash uchun birinchi galda ularga aniq bilimlar berish, kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va bundan kelgusi kasb faoliyatida unumli qo'llashga o'rgatishdan iborat. Shu tufayli o'quv-tarbiya jarayonini ta'lim nazariytasi asosida ta'lim-tarbiya ishlarini "Pedagogik texnologiya" yo'nalishiga o'tkazish kerak bo'ladi.

Bugungi davr talabidan kelib chiqib, umumta'lim maktablarida o'qitishning an'anaviy usullaridan voz kechilmoqda hamda uning o'rniga o'qitishning yangi-yangi usullaridan keng foydalanishga o'tib borilmoqda. An'anaviy o'qitish usullarining o'ziga xos kamchiligi shundan iboratki, unda o'qituvchi dars jarayonida yetakchilik maqomida bo'lib, o'quvchi faqat o'qituvchi tomonidan berilgan bilimlarni passiv holda o'zlashtirishi talab etilgan, xolos. Shu bilan birga o'qitish jarayoni o'rtacha o'zlashtiruvchi o'quvchining berilgab bilimlarni o'zlashtirishiga yo'naltirilgan. Natijada faol, iqtidorli o'quvchilart darsdan qoniqmasliklari, ular uchun dars zerikarli bo'lib qolishi va bilim olishga intilishning susayishi, past o'zlashtiruvchi o'quvchilar esa umuman hech qanday bilimlarni egallay olmaslik hollari kuzatilar edi. Bu jarayonni umumiy holda ta'lim jarayoniga innovatsion (yangilik, yangilik kiritish) texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish deb ataladi. O'quv jarayonida ta'lim samaradorligini oshirishning interaktiv metodlar (jamoa bo'lib fikrlash orqali va pedagogik ta'sir etish vositasida ta'lim mazmunini boyitishdir), innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnologiyalar, axborot texnologiyalari kabi turlari mavjud [30].

Interaktiv metodda jamoa bo'lib fikrlash orqali va pedagogik ta'sir etish vositasida ta'lim jarayoni boyitiladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi hamkorlikda, birgalikda faoliyat olib boradi. Bu usulning samarali tomoni shundaki, guruhdagi barcha o'quvchilar faollikka tortiladi, ularni mustaqil fikrlashga va izlanishga yo'naltiriladi, dars jarayoni demokratik tamoyillar bilan olib boriladi.

Pedagogik texnologiya – o'quvchining bilim olish ehtiyojidan kelib chiqqan holda, aniq bir maqsadga yo'naltirilgan, avvaldan loyihalashtirilgan hamda kafolatlangan natijaga erishishga qaratilgan Pedagogik jarayondir.

Ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llab o'qitish o'quvchi tomonidan bilimlarni o'zi qidirib topishiga, egallagan bilimlaridan xulosalar chiqarib olishiga olib keladi. O'quvchi dars jarayonida asosiy figuraga aylanadi. O'qituvchi esa o'quvchining bilim olishi, rivojlanishiga sharoit yaratadi, dars jarayonini boshqaradi, o'quvchini maqsadli yo'nalishga yo'llaydi.

Dars jarayoni o’qituvchi va o’quvchi hamkorligida amalga oshiriladi. Shunday ekan, ularning o’zaro hamkorligi, o’zaro muloqoti, bir-biriga ko’rsatadigan ta’siri zamonaviy va milliy talablar dorasida tashkil etilishi shart. Bunda o’qituvchiga ta’limni tashkil etish va boshqarish, o’quvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, o’quvchi bilan hamkorlik qilish, uni o’qishga, o’rganishga yo’naltirish, o’quvchining shaxsiy faoliyatini to’g’ri tashkil etish, o’quvchi bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, guruhda ijodiy, ishchan muhitni vujudga keltirish kabilar bilan qurollangan bo’lishi kerak.

Ta’limning Pedagogik texnologiyasi ta’lim oluvchilarga yo’naltirilib, o’quvchilarning shaxsiy va o’qituvchi bilan hamkorlikdagi faoliyatidan iborat holda o’quv materialining o’quvchi tomonidan o’zlashtirilishiga qaratilgan bo’ladi, ya’ni o’quvchi shaxsini rivojlantirish va ta’lim maqsadiga erishishdir.

Pedagogik texnologiya kafolatlangan yakuniy natija, ta’limning mahsuldorligi, teskari aloqaning mavjudligi, ta’lim maqsadining aniq shakllanganligi kabi tamoyillarni o’z ichiga oladi.

Pedagogik texnologiyada yangi materialni o’zlashtirishning quyidagi darajalari mavjud:

1. Boshlang’ich. O’quvchida eshitilgan, berilgan namuna, algoritm va ko’rsatmalar asosida topshiriqni bajarish ko’nikmasini shakllantirish.

2. Algoritmik daraja. Algoritmik darajadagi bilim va ko’nikmalarni tadbiq qilish orqali bir tipdagi masalalarni yechish, yozib olish, eslab qolish ko’nikmasi. 3. Evristik daraja. Taqdim etilgan o’quv topshiriqlarini hal etish yo’llarini izlash va shu asosda yangi axborotlarni mustaqil tarzda izlab topish.

4. Ijodiy xarakter darajasi. Ijodiy xarakterdagi o’quv materialini, avval o’zlashtirilgan bilim va ko’nikmalarni turli muammolarga tadbiq eta olish. Boshlang’ich va algoritmik xarakterdagi darajalar reproduktiv bilim va ko’nikmalarni talab etgani uchun ularni ijrochi texnologiya deb ataladi.

O’quv materialini esda saqlab qolish va ko’nikmalarni hosil qilishga yo’naltirilgan bilim va mahoratlar darajasi reproduktiv va mahsuldor faoliyatni uyg’unlashtirishni taqozo etadi.

O’quvchi faoliyatida izlanuvchanlik, topqirlik talab etilganda va yuqori darajadagi muammoli vaziyatni tahlil etuvchi topshiriqlar, ishchan o’yinlar, mustaqil ishlar bilan bog’liq texnologiya evristik texnologiya deb ataladi.

Biz kasb-hunar kollejida o’tkaziladigan Maxsus rasm fani darslarida o’quvchilarning tayyorgarlik darajasi va sharoitdan kelib chiqib darslarni tashkil etishnda “Ijrochi texnologiya”ni asos qilib oldik.

O’qituvchi dars mashg’ulotiga tayyorgarlik ko’rar ekan, o’z oldiga aniq bir maqsadni qo’yadi. O’quvchi ham o’z navbatida dars mashg’ulotiga bilim olish uchun kiradi. O’qituvchi dars mashg’ulotida o’z maqsadini amalga oshirish uchun dars mazmuni, dars metodi, dars shakli va dars vositasini aniqlab olishi kerak bo’ladi. Belgilangan vazifalarning to’g’ri va o’rinli tanlanishi, o’qituvchi-o’quvchi munosabatlaridagi demokrati tamoyillarga amal qilinishi oqibatida dars mashg’uloti yakunida belgilangan kafolatlangan natijaga erishilishi kerak bo’ladi. Aniq belgilangan maqsadda aniq belgilangan va kafolatlangan natijaga erishish uchun Pedagogik texnologiyalardan birortasini tanlab olish kerak bo’ladi.

Bunda guruh o’quvchilarining bilim darajasidan kelib chiqib, kasb-hunar kollejidagi sharoitdan kelib chiqib, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o’quv filmini tomisha qilish va uning tahlili, o’quv adabiyotlari ustida mashq qilish, internet tarmog’ida ishlash, tarqatma materiallar bilan tanishish, kiyim andazalari bilan shug’ullanish, ko’rsatma materiallar bilan tanishish texnologiyalaridan biri tanlab olinishi mumkin.

Dars mashg’ulotining aniq maqsadini belgilash hali unda kafolatlangan natijaga erishish uchun yetarli shatr hisoblanmaydi. Buning uchun dars jarayonini avvaldan loyihalashtirilishi zarur. Dars jarayonini loyihalash bu o’tiladigan dars jarayonining texnologik xaritasini tuzib olish bilan amalga oshiriladi. Texnologik xaritada aniq belgilangan maqsad, vazifa, kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasini hisobga olgan holda tuzilishi va shunga amal qilgan holda dars jarayonining olib borilishi o’qitish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Texnologik xarita quyidagilardan iborat bo'lishi mimkin:

1. Dars mashg'uloti mavzusi (reja asosida).
2. Dars mashg'ulotining maqsadi (nazariy ma'lumotlarni tushuntirish).
3. Dars mashg'ulotining vazifasi (talabalarning o'zlashtirishlarini nazorat qilish va ularning bilimlarini baholash).
4. Dars jarayonining mazmuni (o'tiladigan mavzu asosida belgilanadi).
5. Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi (dars metodi, dars shakli, dars vositasi, dars usuli, nazorat turi, o'quvchilarni baholash).
6. Kutiladigan natijalar (nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish, o'quvchilar faolligining oshishi, ulardagi qiziqishning uyg'onishi, ko'pchilik o'quvchilarning baholanishi, maqsadga erishish).
7. Kelgusi rejalar (o'qituvchi tomonidan ilg'or pedagogik texnologiyalarning o'zlashtirilishi va dars jarayoniga tadbiq etilishi, o'z ustida ishlash, pedagogik mahoratining oshishi; o'quvchi tomonidan dars mavzusi ustida mustaqil ishlashning yo'lga qo'yilishi, erkin muloqotga kirisha olishning shakllanishi, qo'shimcha materiallarni izlab topishga va ularni o'rganishga intilish, kichik guruhning umumiy fikrini tahlil eta olishi va o'z fikrini asoslashga intilish hissining shakllantirilishi).

Pedagogik texnologiya o'ziga xos va potentsial yaratiladigan pedagogik natijalarga erishish uchun pedagogik tizimning barcha tashkiliy tomonlariga aloqador nazariy va amaliy (ta'lim tizimi doirasida) tadqiqotlar sohasi sifatida belgilanadi [31]. O'qitish jarayonida xozirgi davrda "Tarmoqlar" ("Klaster"), "3x3", "Blits-o'yin", "Intervyu", "Bumerang" kabilar eng ko'p qo'llanayotgan pedagogik texnologiyalar hisoblanadi.

Maxsus rasm fanida odam qomati rasmini chizishga oid mavzuni o'tishda yuqoridagi usullar ichidan biz uchun qulay bo'lgan "Klaster" usulini tanlab oldik.

**Bob bo'yicha xulosalar:**

-yurtimizda qadimda odam qomati rasmini ishlash tasviriy san'atning miniatyura janrida amalga oshirilgan, xolos;

-o'quvchi tikuv va tikuv-trikotaj ishlab chiqarishi texnik-texnologi kasbini yaxshi egallash uchun odam gavdasining kiyimli holdagi rasmini talab darajasida chiza olishi kerak;

-maxsus rasm o'quv fanida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llamay turib, o'quvchilarga odam gavdasi rasmini chizishni o'rgatishda samaradorlikka erishib bo'lmaydi.

## III. METODIKA QISMI

### III.1. Dars samaradorligini oshirish uchun tayyorlangan ko'rsatmali materiallar.

Odam qomatini chizishga oid turli xil manbaalardan 95 ta rasm to'plandi, yettita plakat va 3 ta variantda 24 ta tarqatma material tayyorlandi.

### III.1.1. Tayyorlangan plakatlar.

Plakatlar 75x53 sm o'lchamda keng formatli nashrda rangli ko'rinishda kitob varag'i joylashuvida yozuv taxtasiga osib qo'yilgan holatda sinf o'quvchilari ko'ra oladiga darajada tayyorlandi.

1-plakat. Odam gavdasini chizish tarixidan.
-qoya va g'or devorlaridagi odam tasviri tushirilgan qadimgi rasmlardan namunalar;
-qadimgi bino va arxeologik qazishmalarda topilgan odam tasviri tushirilgan rasmlardan namunalar.
2-plakat. O'zbek tasviriy san'atida odam obrazi. Movarounnahr va Xuroson tasviriy san'atida odamni tasvirlash.
3-plakat. O'zbek tasviriy san'atida odam obrazi.
4-plakat. Odam gavdasining rasmi. Odam gavdasi proportsiyasi. Odam skeleti.
5-plakat. Odam kallasini tasvirlash. Odam kallasini tasvirlash tarixidan. Odam kallasini turli vaziyatlarda chizish.
6-plakat. Odam gavdaning antropometrik chiziqlari. Odam gavdasidan o'lchov olish.
7-plakat. Bola rasmini chizish bosqichlari. Odam gavdasining asosiy (ko'rinma) nisbatlari.

Quyidagi tasvirlarda tayyorlangan plakatlar tasvirlangan.

1-plakat

**ODAM GAVDASINI CHIZISH TARIXIDAN**

**Qoya va g'or devorlaridagi odam tasviri tushirilgan qadimgi rasmlardan namunalar**



b

a c d

a-Nurota tog'lari Qoratov tog' tizmasining janubiy yon bag'ridagi Qoracharvoq qoyatoshlariga ishlangan tasvirlar;
b-Ov manzarasi (Afrika);
c-Jangchilar (Ispaniya);
d-Yovvoyi asal yig'ayotgan ayol (Sharqiy Ispaniya).

**Qadimgi bino va arxeologik qazishmalarda topilgan odam tasviri tushirilgan rasmlardan namunalar:**



e



f

a- Bolaliktepa devoriy rasmidan parcha. Surxondaryo. V-VI asrlar;
b- Afrosiyob devoriy rasmidan parcha. Samarqand. V-VII asrlar.

2-plakat

## O'ZBEK TASVIRIY SAN'ATIDA ODAM OBRAZI

### Movarounnahr va Xuroson tasviriy san'atida odamni tasvirlash





Qosim Ali. “Alisher Navoiy va Sulton Muhammad Mirzo surati”. Hirot. 1480.

“Farhod Shirinni oti bilan birga dast ko’tarib qasrga eltmoqda”. Buxoro. 1648.



Chingiz Axmarov. Oila.



X.Nazirov. Hofiz Xorazmiy g’azaliga ishlangan rasm. 1985



Q.Basharov. Nodirabegim. 2001.

3-plakat

## O’ZBEK TASVIRIY SAN’ATIDA ODAM OBRAZI



Chingiz Axmarov. “Shoira Zulfiya portreti”. 1964.



N.Qoraxon. “Bug’doy elayotgan ayol”. 1946.



Z.Inog'omov. "Choyga". 1957.

4-plakat

## ODAM GAVDASINING RASMI

### Odam gavdasi proportsiyasi



Qadimgi Misr



Leonardo da Vinchi.
"Qadimgilar kvadarati"



Mikelanjelo



A.P.Losenko

### Odam skeleti








A chiziq: Odam bo'yining o'rtasi; B chiziq: Yelka suyagi chizig'i;
V chiziq: Dumg'aza chizig'i; G chiziq: Tizza chizig'i.

5-plakat

## ODAM KALLASINI TASVIRLASH

### Odam kallasini tasvirlash tarixidan



Villari. Odam kallasi rasmi.



Dyurer. Odam kallasi konstruktsiyasi;



G.Golbeyn. Odam kallaksi rasmi.





Odam kallasi va kalla suyagi o’rtasidagi mutanosiblik

Odam kallasining simli modeli

**Odam kallasini turli vaziyatlarda chizish**



6-plakat

## ODAM GAVDANING ANTROPOMETRIK CHIZIQLARI




$B_n$-bo’yin konstruktiv chizig’i;
Ye-yelka konstruktiv chizig’i;
$B_l$-bel konstruktiv chizig’i;
$B_k$-bo’ksa konstruktiv chizig’i;
T-tizza konstruktib chizig’i;
$T_q$-to’piq konstruktiv chizig’i;
Q-qo’l konstruktiv chizig’i;
1-orqaning o’rta markazidan o’tadigan konstruktiv chiziq;
2-bo’yin asosi kengligi konstruktiv chizig’i ;
3-yon konstruktiv chizig’i;
4-oldinda o’rta markaziy konstruktiv chiziq.

## ODAM GAVDASIDAN O'LCHOV OLISH




1-yettinchi bo'yin umurtqasi;
2-ko'krak aylana chizig'i;
3-bel chizig'i;
4-son chizig'i;
5-umumiy uzunligi;
6, 7-yelka qismining uzunligi;
8-yeng uzunligi;
9-ko'krak o'rtasi;
10-yubka uzunligi;
11-ko'krak aylanasi;
12-ko'krak osti;
13-yoqa;
14-bel aylanasi;
15-son aylanasi;
16-tirsakkacha uzunlik;
17-tirsak aylanasi;
18-bilakning quyi qismi aylanasi;
19-tizzagacha uzunlik;
20-umumiy uzunlik;
21-odim uzunligi.

7-plakat

## BOLA RASMINI CHIZISH BOSQICHLARI

Sxematik tasvir



Bola gavdasining proportsiyasi

Xomaki tasvir



Bolaning xomaki rasmi

Rasmni bitkazish



Gavdaning markaziy chizig'i




Odam gavdasining asosiy (ko’rinma) nisbatlari



**III.1.2. Tayyorlangan tarqatma materiallar.**

Tarqatma materiallar 105x75 mm o’lchamda rangli ko’rinishda kitob varag’i joylashuvida kichik guruhchalarda ishlaganda o’quv stolida foydalanish mumkin bo’lishini e’tiborga olib qalin qog’ozda tayyorlandi (32-rasm).









32-rasm. Tayyorlangan ko'rsatma materiallar.

**III.2. Talim texnologiyalari. "Erkaklar kiyimi modellari rasmini chizish" mavzusini o'tish.**

**III.2.1. Dars mashg'ulotini o'qitish texnologiyasi**

| Vaqti: 2 soat; O'quvchilar soni 27 nafar. | |
|---|---|
| Reja | 1. Erkaklar gavdasining anatomik tuzilishi.<br>2. Gavda bo'laklarining nisbiy o'lchamlari.<br>3. Gavda ko'rinishini chizishda o'rta chiziq, uning burilgan holdagi o'zgarishi.<br>4. Erkaklar kiyimlari ko'rinishi va siluetlari.<br>5. Kiyimni gavdaga kiyintirilgan ko'rinishda chizish. |
| Ta'limiy maqsad | -Erkaklar gavdasining anatomik tuzilishini o'rganish.<br>-gavda bo'laklarining nisbiy o'lchamlari bo'yicha bilimlarni egallash. |
| Tarbiyaviy maqsad | -o'quvchilarda kiyinish madaniyatini shakllantirish.<br>-erkaklarning milliy va zamonaviy kiyimlarini targ'ib etish.<br>-o'quvchilarda kiyimlar va ular konstruktsiyasining kundalik hayotdagi, faoliyatdagi va sog'liqni saqlashdagi ahamiyatini uqdirish. |
| Rivojlantiruvchi maqsad | Kiyimning yangi modellari va konstruktsiyasini fikrlab o'ylab topish |
| Pedagogik vazifalar | -o'quvchilarda kiyimning yangi modellari va konstruktsiyasini yaratishga nisbatan qiziqish uyg'otish;<br>-mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantirish. |
| O'quv faoliyatining natijalari | O'quvchi:<br>-erkaklar kiyimlari ko'rinishi va siluetlari, kiyimni gavdaga kiyintirilgan ko'rinishda turli holatga burilgan ko'rinishlarini gavda kiyim tuzilishidagi nisbiylikni saqlagan holda chiza oladi;<br>-erkaklarning turli xil faoliyatlarida kiyimning ahamiyati, kiyimlardagi milliylik va zamonaviylikni tushuntiradi. |
| O'qitish uslubi va texnologiyasi | Vizual amaliy masahg'ulot, test –so'rov, klaster, muammoli vaziyat va ATdan foydalaniladi. |
| O'qitish vositalari | Amaliy masahg'ulot dars ishlanmasi, naturachi, tarqatma materiallar, slaydlar, plakatlar, grafit qalam va rasm qog'ozi. |
| O'qitish shakli | Ommaviy. |
| O'qitish shart-sharoiti | Kompyuter bilan jihozlangan guruh xonasi. |

### III.2.2. Dars mashg'ulotining texnologik xaritasi

| Bosqich (vaqt) | Faoliyat mazmini | |
|---|---|---|
| | O'qituvchi | O'quvchi |
| 1. Kirish (10 daqiqa) | 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'lotlaridan kutilayotgan natijalarni tushuntiradi. | 1.1. Eshitadi va yozib oladi. |
| 2. Asosiy (65 daqiqa) | 2.1. O'quvchilar e'tiborini jalb etish va bilim darajalaruni aniqlash uchun tezkor savol-javob o'tkazadi:<br>-odam gavdasi qismlarining nisbiy o'lchamlarini bilasizmi?<br>-ayollar, erkaklar va bolalar gavda tuzilishidagi umumiylik va farqni ayting.<br>-zamonaviy va milliy ayollar kiyimlari haqida nimalarni ayta olasiz?<br>-odam gavdasini chizish tartibini tushuntiring. | 2.1. Eshitadi, berilgan savollarga javob beradi. |

| | | |
|---|---|---|
| | 2.2.1. O'qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda amaliy mashg'ulotda bajariladigan vazifa bo'yicha nazariy ma'lumotlarni bayon etishda davom etadi va rasmni chizish tartibini plakatlar asosida tushuntiradi:<br>1. Erkaklar gavdasining anatomik tuzilishi.<br>2. Gavda bo'laklaridagi nisbiylik.<br>3. Gavda ko'rinishini chizishda o'rta chiziq, uning burilgan holdagi o'zgarishi.<br>4. Erkaklar kiyimlari ko'rinishi va siluetlari.<br>2.2.2. Kasb-hunar kolleji ichki tartib-qoidasi asosida kiyingan naturachini chizish vazifasini beradi:<br>5. Kiyimni gavdaga kiyintirilgan ko'rinishda chizish. | 2.2. Tinglaydi, yozib oladi, tarqatma materiallarni klaster usulida tartiblashtiradi, qo'yilgan postanovka – natura asosida rasm chizadi. |
| | 2.3. O'quvchilar chizgan rasmlar asosida ularning bilimini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida o'quvchilarni uch guruhga ajratadi va ularga tarqatma materiallar beradi hamda ularni klaster usulida tartiblashtirishni vazifa qilib beradi. | 2.3. Tarqatma materiallarni tartiblashtiradi. |
| 3. Yakuniy (5 daqiqa) | 3.1. Amaliy mashg'ulotga yakun yasaydi va O'quvchilar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. | 3.1. Eshitadi. |
| | 3.2. Faolligi va chizgan rasmlarning darajasiga qarab o'quvchilarni rag'batlantiradi. | |
| | 3.3. O'quvchilarni baholaydi. | |
| | 3.4. Mustaqil ish uchun vazivalar beradi.<br>Uyga vazifa:<br>-amaliy mashg'ulotda bajarilgan topshiriqni tugallash;<br>-turli ko'rinishdagi erkaklar gavda tuzilishini kiyimdagi tasvirini chizish. | 3.4. Topshiriqlarni yozib oladi. |
| | 3.5. Mashg'ulotni yakunlaydi. | |

**Mavzu: Erkaklar kiyimi modellari rasmini chizish**

Reja:

1. Erkaklar gavdasining anatomik tuzilishi bilan tanishish.
2. Gavda bo'laklarining nisbiy o'lchamlarini o'rganish.
3. Gavda ko'rinishini chizishda o'rta chiziq, uning burilgan holdagi o'zgarishi.
4. Erkaklar kiyimlari ko'rinishi va siluetlari.
5. Kiyimni gavdaga kiyintirilgan ko'rinishda chizish mashqlarini bajarish.

Ta'limiy maqsad:

-erkaklar gavdasining anatomik tuzilishini o'rganish.
-gavda bo'laklarining nisbiy o'lchamlari bo'yicha bilimlarni egallash.

Tarbiyaviy maqsad:

-o'quvchilarda kiyinish madaniyatini shakllantirish.
-erkaklarning milliy va zamonaviy kiyimlarini targ'ib etish.
-o'quvchilarda kiyimlar va ular konstruktsiyasining kundalik hayotdagi, faoliyatdagi va sog'liqni saqlashdagi ahamiyatini uqdirish.

Rivojlantiruvchi maqsad:

-kiyimning yangi modellari va konstruktsiyasini fikrlab o'ylab topish.

Pedagogik vazifalar:

-o'quvchilarda kiyimning yangi modellari va konstruktsiyasini yaratishga nisbatan qiziqish uyg'otish;
-mavzu bo'yicha bilim va rasm chizish ko'nikmalarini shakllantirish.

O'quv faoliyatining natijalari: Mazkur darsdan so'ng o'quvchi erkaklar kiyimlari ko'rinishi va siluetlari, kiyimni gavdaga kiyintirilgan ko'rinishda turli holatga burilgan ko'rinishlarini gavda kiyim tuzilishidagi nisbiylikni saqlagan holda chiza oladi.

-erkaklarning turli xil faoliyatlarida kiyimning ahamiyati, kiyimlardagi milliylik va zamonaviylikni tushuntiradi.

O'qitish uslubi va texnologiyasi:
Vizual amaliy masahg'ulot, test–so'rov, klaster, muammoli vaziyat va ATdan foydalaniladi.
O'qitish vositalari:
Amaliy masahg'ulot dars ishlanmasi, naturachi, tarqatma materiallar, slaydlar, plakatlar, grafit qalam va rasm qog'ozi.
O'qitish shakli:
-ommaviy va guruhchalar bilan ishlash.

O'qitish shart-sharoiti:
-kompyuter bilan jihozlangan guruh xonasi.

Darsning tashkiliy qismi.

O'qituvchi guruh xonasiga kiradi va o'quvchilar bilan salomlashadi. O'quvchilar (o'quvchilarning tashqi ko'rinishi, amaliy mashg'ulotga olib kelingan o'quv qurollari, o'quvchilarning kayfiyati, salomatligi va hokazolar) va guruh xonasining dars mashg'ulotiga tayyorlik darajasini (tozalik, yozuv taxtasining tozaligi, lattaning ho'llanganligi, bo'rning mavjudligi, xonada yot narsalarning mavjud emasligi, elektr, yong'in havfsizligi, xonaning jihozlanganlik holati va hokazolar) ko'zdan kechiradi hamda navbatchini aniqlaydi. Guruh jurnali asosida o'quvchilarni yo'qlama qiladi. Guruhning o'quv jurnalini rasmiylashtiradi.

O'quvchilar e'tiborini jalb etish va bilim darajalaruni aniqlash maqsadida "Aqliy hujum" vaziyatini yuzaga keltiriladi va quyidagi savollar galma-gal berib boriladi:
-odam gavdasi qismlarining nisbiy o'lchamlarini bilasizmi?
-ayollar, erkaklar va bolalar gavda tuzilishidagi umumiylik va farqni ayting.
-zamonaviy va milliy ayollar kiyimlari haqida nimalarni ayta olasiz?
-odam gavdasini chizish tartibini tushuntiring.

Har bir savol bo'yicha o'quvchilarning javoblari yozuv taxtasiga qayd etib boriladi, tahlil etiladi va ularning ichidan eng to'g'ri deb topilganlarini aniqlanadi hamda ularni topgan o'quvchilar ta'kidlab o'tiladi.

O'quvchilarda o'tgan mavzu bo'yicha savollar bor-yo'qligi aniqlanadi hamda o'tilgan mavzu ma'lumotlari umumlashtiriladi.

O'qituvchi ko'rsatma materiallardan foydalangan holda amaliy mashg'ulotda bajariladigan vazifa bo'yicha nazariy ma'lumotlarni bayon etiladi.

*1. Erkaklar gavdasining anatomik tuzilishi.* Odam gavdasi rasmini chizishda eng avval uning gavda tuzilishini o'rganib chiqish zarur. Odam gavdasining shakli uning suyak tizimi-skeletning tuzilishiga bog'liq. Sklet bosh suyak, gavda, qo'l va oyoq suyaklaridan tashkil topgan. Sklet rasmini kalla suyagi rasmini turli tomondan xomaki holatda chizishdan boshlagan ma'qul (33-rasm).



a b

33-rasm. Odam skeleti tuzilishi: a-odam skeleti; b-kalla suyagi.

*2. Gavda bo'laklaridagi nisbiylik.* Odam kallasining tanaga bo'lgan nisbati yoshga ko'ra turlicha bo'ladi. Kalla o'lchami umumiy bo'yga nisbatan katta yoshdagilarda 7-8 marta kichik, yosh bolalarda 4-5 marta kichik bo'ladi (34-rasm). Ammo bu qoida individual xarakterga ega. Shu sababli odam qomatini naturaga ko'ra chizishda gavda qismlarining nisbatlariga jiddiy e'tibor berish lozim.



34-rasm. Erkak, ayol va bolalar qomati rasmini umumiy holda chizish.

Odam qomatini chizishda uni teng ikki qisimga olish kerak. Rasm chizishni boshlayotgan o'quvchi uchun bu juda muhim. Qog'oz yuzasini teng ikki bo'lish orqali chizilayotgan odam qomatining bo'yini belgilab olish mumkin, so'ngra odam tanasi boshqa a'zolarining o'lchamlarini aniqlash mumkin. Kalla uzunligi odam bo'yining taxminan 7/2 qismiga teng bo'ladi (35-rasm).




35-rasm. Odam qomati proportsiyasi:
A-chiziq-odam bo'yining o'rtasi;
B-chiziq-Yelka suyagi chizig'i;
V-Dumg'aza chizig'i;
G-tizza chizig'i.

